

Ma'rifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2025-yil 22-oktabr chorshanba №42(9575)

Umid XO'JAMQULOV:




2, 3, 4-betlar

Sentabr oyida malaka oshirishga bordim. O'zgarishlar zo'r, yangiliklar ko'p. Asosiy e'tibor o'quvchilarning bilim olishini osonlashtirish va oson tushuntirishni o'rganishga qaratilgan.


Maktabga qaytganimdan keyin dars o'tish jarayonimni o'zgartirdim. Natijada mavzuga tushunmaydigan, to'polon qilib o'tiradigan o'quvchi qolmadi. O'quvchilardan ajoyib g'oyalar chiqayapti. Fanga qiziqishlari ortayapti. O'zim ham dars o'tib umuman charchoq sezmayapman. Agar bizning maktablarga ham elektron doskalar kelib, o'rganganlarimizni qo'llasak yanayam zo'r natijaga erishgan bo'lardik.

Nargiza MIRAHMEDOVA



O'quvchilarni og'zaki hisoblashga o'rgatish usullari

6-bet



"Ma'rifat"ga maktublar

8-9-betlar



Nobelning armoni

12-bet



Mutaxassis minbari



O'zbekiston ilm-fanida nomi chiqqan, tan olingan olimlar, hatto akademiklar orasida ham o'z fanining mavqeyini boshqa fanlardan ustun qo'yishdek nomaqbul bir illat urchiyotgani kishini ranjitadi. Bu holat insonni shunchaki hayratga soladi: ilm olamidagi eng nufuzli shaxslar ham ba'zan subyektiv qarashlar domiga tushib qolishi mumkin ekan.

Olimning bag'rikenglik qiyofasi ilmni o'z yo'nalishi doirasidan chetda ham ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Teran tadqiqotlar muallifi o'z faniga muhabbat bilan yondashar ekan, bir vaqtning o'zida boshqa fanlarning ahamiyatini ham chuqur his etishga majbur. Chunki har qanday fanning fundamental tadqiqotlari tabiiy ravishda yondosh sohalar bilan chuqur integratsiyani talab qiladi. Zero, zamonaviy ilm yaxlit tizim bo'lib, unda bir yo'nalishdagi kashfiyot ikkinchisi bilan uyg'unlashmas ekan, natija ham to'liq qiymat kasb etmaydi. Tadqiqotchi integratsiya jarayonida boshqa fanlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini angelaydi, ilmiy yechimning keng qiralarini kashf qiladi. Agar bu uyg'unlik yo'lga qo'yilmasa, tadqiqotning ilmiy va amaliy qimmat kamayib, natija chala va hayotiy quvvatdan mahrum holda qolishi muqarrar. Shu bois boshqa fan haqida yuzaki mulohaza bildirish yoki uning ilmiy maqomini shubha ostiga qo'yish, aslida, o'z nufuzini shubha ostiga qo'yish bilan barobardir. Ilm olamida beg'arazlik va xolislik oliy mezon sifatida qadrlanadi. Haqiqiy olim o'zi yoki fanini ustun qo'yishdan emas, balki ilmiy hamkorlik va muloqotdan sharaf topadi.

Aslida XXI asr birinchi choragi intihosida bunday muammoga bag'ishlab maqola qoralashning o'zi qanchalik to'g'ri? Chunki ming yillar muqaddam Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar pedagogik masalalarga jiddiy e'tibor qaratib, tarbiya va ta'limni inson kamolotining asosiy poydevori sifatida talqin qilgan edilar. Ular uchun bu sohaning fan sifatida mavjudligi shubhasiz edi. Modomiki, pedagogika fan sifatida shubha ostiga qo'yilayotgan ekan, demak, biroz tarixga nazar solib, o'zimizni qayta anglashga majburmiz. Chunki pedagogikani fan sifatida e'tirof etish bu ta'lim va tarbiyaga bo'lgan munosabatimizni belgilaydigan asosiy mezondir. Pedagogika – insonning insonga aylanish jarayonini o'rganadi. Bu esa shunchaki nazariya yoki hissiy mulohaza emas, balki insoniyat taqdiri uchun hal qiluvchi jarayonning ilmiy tahlil va asosini yaratish demakdir.

Zamon tez o'zgarmoqda, ilm-fan turli yo'nalishlarda ilgarilamoqda. Biroq qaysi sohaga nazar tashlamaylik, uning asosida baribir ta'lim va tarbiya turganini ko'ramiz. Pedagogikaning fan sifatidagi mavqeyini tushuntirish, uning ahamiyatini ilmiy jamoatchilikka sodda tilda yetkazish bugun kun tartibiga chiqib qoldi. Bu afsuslanarli holat.

Pedagogikaning fan sifatidagi xususiyatlari sohaga oid darslik va o'quv qo'llanmalarda asoslangan. Biz bunga to'xtalib, takrorlamoqchi emasmiz. Ushbu maqolada pedagogikaning fan sifatidagi o'ziga xosligi va ahamiyatini soddaroq tushuntirishni lozim topdik.

PEDAGOGIKA: FAN

(fan va ta'lim

Fan va ta'limning dialektik aloqadorligi

Fan va ta'lim bir-biridan ajralmas ikki qutbdir. Ular orasida chuqur dialektik bog'liqlik mavjud: fan yangilansa, ta'lim ham yangilanadi; ta'lim taraqqiy etmasa, fan ham ommaviy ma'noda hayotga tatbiq etilmaydi. Aslida har qanday fanning barqaror rivojlanishi uning o'qitish tizimi bilan chambarchas bog'liq. Matematika, fizika, biologiya yoki tilshunoslik bo'lsin – barchasi ta'lim orqali avloddan avlodga o'tadi, metodikasi shakllanadi. Demak, "Fan bor ekan, uni o'qitish muammosi ham bor" degan haqiqat o'z-o'zidan oydinlashadi. Aynan shu o'qitish muammosi pedagogikaning fan sifatida barhayotligini isbotlaydi. Agar pedagogika bo'lmasa, fan yutuqlarining vorisiylik asosda avloddan avlodga o'tishi ham va uning amaliyotga tatbiq etilishi ham yo'qoladi. Chunki fanning nazariy kashfiyotlari yosh avlod ongiga yetkazilmasa, bu kashfiyot amaliy qiymat kasb etmaydi. Shu bois har bir fan o'z taraqqiyoti uchun pedagogikaga muhtoj. Ta'lim esa fanning hayotiy qiyofasi hisoblanadi. U orqali fan yutuqlari odamlar ongi, jamiyat tafakkuriga singadi. Shu ma'noda pedagogikani "ikkinchi darajali soha" deb baholash mutlaqo noto'g'ri. Aksincha, u fanlar uyg'unligi va uzluksizligini ta'minlovchi markaziy halqa sifatida qaralishi lozim. Fan va ta'limni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Fan orqali bilim yaratiladi, pedagogika orqali esa u bilim sifatida jamiyatga yetkaziladi, o'qitishning metod va shakllari takomillashtiriladi. Bu ikki jarayonning uzviyligi pedagogikaning nafaqat zarurligi, balki fan sifatidagi maqomini ham mustahkamlaydi.

Pedagogikaning fan sifatida murakkabligi

Pedagogika – murakkab fan. Chunki obykti inson va uning intellektual hamda ma'naviy kamolotini ta'minlash jarayonidir. Inson esa tabiatning eng murakkab, eng serqirra mavjudoti sifatida hamisha o'zgarish va taraqqiyotda yashaydi. Shuning uchun ham insonni tarbiyalash, unga ta'lim berish, har tomonlama rivojlantirish jarayonini aniq qonun-qoidalarga sig'dirib qo'yish mushkul va hatto mumkin emas. Inson bir vaqtning o'zida ham ruhiy, ham ma'naviy, ham ijtimoiy jihatlarni o'zida mujassam etgan mavjudotdir. Pedagogikaning murakkabligi esa aynan shu jihat – inson qiyofasining serqirraligi tufaylidir.

Aniq va tabiiy fanlarda vaziyat boshqacha. Masalan, fizikada Nyuton yoki Arximed qonunlari asrlar davomida o'z kuchini yo'qotmagan. Kimyoda suvning ikki vodorod va bir kislorod atomidan tashkil topishi hech qachon o'zgarmaydi. Matematikada teoremlar va formulalar doimiy haqiqat sifatida qoladi. Shu bois bu fanlarda mutlaq haqiqatni yaratish, uni abadiy qonun sifatida tasdiqlash osonroq. Biroq pedagogikada bu mumkin emas. Chunki uning obykti – inson; insonning ma'naviy va intellektual qiyofasi, talab va ehtiyojlari esa kecha qanday bo'lsa, bugun undan farqli, ertaga esa yana boshqacha shaklda namoyon bo'ladi. Insonning fikr tarzi, dunyoqarashi, ehtiyoji va qadriyatlarini zamon bilan birga o'zgarib boradi. Shuning uchun pedagogik paradigmalari, texnologiya va metodikalar ham o'zgaruvchan, doimiy ravishda yangilanib borishi zarur. Bugun samara bergan metod ertaga kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Pedagogikaning murakkabligi yana shu bilan ham belgilanadiki, u nafaqat bilim berish, balki insonning shaxsiy kamoloti, ma'naviy dunyosi va hayotiy qarashlariga ta'sir qiladi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogika insonni inson qiladigan jarayonning ilmiy tahlilidir. Shaxs tarbiyasidagi har bir yo'nalish: oila, maktab, jamiyat,

madaniyat – barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Shu sabab tarbiya masalasida mutlaq haqiqatlar yo'q, balki doimiy izlanish va o'zgarish mavjud.


Pedagogika doimo yangi sharoit, yangi avlod ehtiyojlariga moslanishi lozim. Chunki har bir avlodning hayotiy tajribasi, axborot muhiti va qadriyatlarini turlicha. Bu esa pedagogikadan hamisha izlanish, ilmiy yangilanish, innovatsiyalarni talab qiladi. Aslida pedagogikaning fan sifatidagi kuch-qudrati ham ana shu o'zgarishlarga javob bera olishi, inson tabiati bilan hamnafas bo'la olishida namoyon bo'ladi. Umuman, pedagogika insonning o'zi kabi murakkab, serqirra va cheksiz rivojlanish imkoniyatiga ega sohadir. Unga sodda nazar bilan qarash, mohiyatini jo'nashtirish bu insonning o'ziga, uning kelajagiga nisbatan kamida e'tiborsizlikdir.

Ta'lim va tarbiya sohasida pedagogik tadqiqotlarning roli

Bugungi kunda ta'lim va tarbiya sohasida muayyan yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Maktablar uchun zamonaviy o'quv dasturlari ishlab chiqilayotgani, oliy ta'limda xalqaro standartlarga mos yo'nalishlar yo'lga qo'yilayotgani, raqamli texnologiyalarning dars jarayoniga kirib kelishi va interaktiv metodlardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning bilim olish jarayoni ancha qiziqarli va ta'sirchan bo'lib bormoqda. Bugun o'qituvchi sinfda faqat "axborot beruvchi shaxs" sifatida emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, o'quvchini mustaqil izlanishga undovchi rahbar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon ta'limning zamonaviy talablarga moslasha olayotganidan, o'zgarishlarning hayotga kirib kelayotganidan dalolatdir. Biroq shu bilan birga, shuni ham chuqur anglashimiz zarurki, bu kabi yangilanish va modernizatsiya jarayonlari o'z-o'zidan sodir bo'layotgan hodisa emas. Ular ilmiy asosga, pedagogik tadqiqotlarga suyanagan holda ro'yobga chiqmoqda. Demak, har qanday yutuq ortida tadqiqotchi olimlarning mehnati, pedagogik maktablarning izlanishlari va ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiqi yotibdi.

Haqiqatan ham, pedagogik tadqiqotlarsiz ta'lim o'zgarayotgan jamiyatning qiyofasiga moslasha olmaydi. Jamiyat har kuni rivojlanmoqda, ishlab chiqarish sohalarida yangi kasblar paydo bo'lib, insonning kundalik hayotida yangi texnologiyalar mustahkam o'rin egallamoqda. Bu esa o'z-o'zidan yangi bilim va ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Masalan, kechagi avlod uchun kompyuter savodxonligi nazariy ko'nikma bo'lgan bo'lsa, bugungi yoshlar uchun u hayotiy zaruratga aylandi. Ertangi kun esa yanada yuqori talablarni qo'yadi: sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, ekologik madaniyat kabi sohalar har bir shaxs uchun oddiy bilimlar darajasiga aylinishi mumkin. Shu sharoitda pedagogik tadqiqotlar ta'lim uchun kompas vazifasini bajaradi: "Qaysi metod samarali, qaysi yo'nalish istiqbolli, qaysi bilimlar jamiyat ehtiyojiga javob beradi?" kabi savollarga javob topish uchun ham pedagogika kerak. Ilmiy tahlil, tajriba va asosli xulosalarga tayanmagan ta'lim esa o'zgarishlar bilan hamnafas bo'la olmaydi va jamiyatdan orqada qoladi.

Ta'lim sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishi ham faqat pedagogik tadqiqotlar orqali amalga oshadi. Singapur, Finlandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlar ta'lim tizimidagi ulkan yutuqlariga tasodifan erishmagan, balki pedagogik izlanishlar va ular asosida ishlab chiqilgan davlat siyosati natijasida bu darajaga ko'tarilgan. Ularda olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar orqali o'quv dasturlari zamon talablariga moslashtirilgan, metodikalar takomillashtirilgan, o'qituvchilar tayyorlash jarayoni qayta ko'rib chiqilgan. Natijada bu mamlakatlar jahon pedagogikasiga ilg'or tendensiyalarni kirita oldi va ta'lim sohasida etalonga aylandi. Mamlakatimiz ham mazkur tajribalarni ilmiy asosda o'rganmas ekan, global bilim maydonida munosib o'rin topa olmaydi. Bu borada mashhur nemis pedagogika nazariyotchisi V.Diltey shunday degan edi: "Pedagogika bu faqat nazariy bilimlar to'plami emas, balki avloddan avlodga o'tib boradigan tajribani ilmiy asosda tashkil etish jarayonidir". Bu so'zlardan ayon bo'ladiki, pedagogik tadqiqotlar nafaqat mavjud



TAQDIRI HALOKAT YOQASIDA

dialektikasi haqida mulohazalar)

bilimlarni saqlab qolish, balki ularni zamonaviy talablarga mos ravishda qayta tuzish, yangicha uslubda avlodlarga yetkazish vazifasini bajaradi. Shu ma'noda, xorijiy tajribani o'rganish va milliy amaliyotga tatbiq etish, faqatgina pedagogik tadqiqotlar orqali samarali bo'lishi mumkin.

Pedagogik tadqiqotlar: e'tirozlar va tahlil

Ayrim ilmiy doiralarda pedagogika sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarning soni va sifatiga nisbatan turli e'tirozlar bildiriladi. Bu e'tirozlar orasida ilmiy asosga ega obyektiv mulohazalar ham, shaxsiy qarash va tor manfaatlardan kelib chiqqan subyektiv munosabatlar ham mavjud. Shuning uchun mavzuga xolis yondashish, barcha sabablarni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etish zarur.

Pedagogikada tadqiqotlar miqdorining ko'pligiga doir e'tirozning o'ziyoq e'tiroz muallifining pedagogikani fan sifatida yetarli darajada anglamasligini ko'rsatadi. Chunki pedagogika alohida bir sohaning emas, barcha sohalarining ta'limiy-tarbiyaviy qonuniyatlarini o'rganuvchi metafan, ya'ni fanlar ustidagi fan hisoblanadi. Odatda matematikadan matematiklar, fizikadan fiziklar, filologiyadan tilchi va adabiyotshunoslar tadqiqot olib boradilar(albatta, istisnalar bor). Lekin pedagogikada vaziyat boshqacha: u fanlar kesishmasida turibdi. Agar fanlar reyestrda 22 ta tarmoq mavjud bo'lsa, ularning har biri uchun o'qitish metodikasi, didaktikasi, baholash tizimi, o'qituvchi tayyorlash modeli, o'quv muhiti, o'quv resurslari va texnologiyalari kabi butun boshli tadqiqot maydoni ochiladi. Shu bois, misol uchun, fundamental matematikadan(fizikadan, biologiyadan va hokazo) bitta dissertatsiya himoya qilinganda, pedagogikada shu matematikani maktab, litsey, kollej, oliy ta'lim, inklyuziv muhitda, qishloq va shahar sharoitida, raqamli platformalarda, loyihaviy-tadqiqotli yondashuvda, STEAM integratsiyasida, malaka oshirish kurslarida qanday o'qitish masalalari bo'yicha o'nlab tadqiqotlar himoya qilinishi o'zaro nisbatning adolatli bo'lishini ta'minlaydi.

2022-yilgi PISA natijalariga ko'ra, mamlakatimiz o'quvchilari matematik savodxonlik bo'yicha 81 davlat orasida 364 ball bilan 72-o'rinni egallagani – fakt. Ana shunday sharoitda soha vakillarining "Pedagogikada tadqiqotlar sifati past" degan xulosaga shoshilishiga ma'naviy asos bormi? Agar bizda matematik tadqiqotlar chindan ham yuqori sifatga ega bo'lsa, matematiklarimiz kuchli bo'lsa, nega u quvvat ta'limda sezilmayapti? Demak, muammo "pedagogikani ayblash"da emas, balki fan natijalarini ta'lim amaliyotiga o'tkazadigan ko'p bo'g'inli mexanizm – o'qitish metodikasi, dastur va standartlar, o'qituvchi tayyorlash va malaka oshirish, baholash mezonlari, sinfdagi amaliy texnologiyalar, maktab rahbariyati va ota-ona hamkorligi kabi butun ekotizimda. Bir so'z bilan aytganda, o'qish natijasi yagona fanning emas, butun tizimning qiyofasi. To'g'ri angladingiz: hozir barcha fan tarmoqlarida tadqiqot sifati bir xil "kritik nuqta" atrofida: birimiz ikkinchimizga e'tiroz qila oladigan holda emasmiz. Jamiyatning darajasi bilan o'sha jamiyatda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning sifati o'zaro proporsional bo'ladi. Ilm-fani ilg'orlashib ketgan, lekin o'zi qoloq jamiyat bo'lmaganidek, ilm-fani qoloq, lekin o'zi ilg'orlashib ketgan jamiyat ham bo'lmaydi. Shu bois ayni paytda bizga "ayblov ritorikasi" emas, "isbot va ta'sir ritorikasi" zarur. Bu borada ayrim takliflarni ilgari suramiz:

- 1) tadqiqotlar natijalarini sinfga tushiradigan milliy metodik platformani yaratish;
- 2) o'qituvchilar uchun repertuarni kengaytiruvchi malaka dasturlarini dizayn-tajriba(design-based research) asosida qayta qurish;
- 3) dars senariylari, topshiriqlar banki va baholash rubrikalarini PISA, TIMSS talablariga moslashtirib, ochiq repozitoriyda replikatsiya qilish;
- 4) "sinf-tahlil-qayta dizayn-qayta sinov" sikllarini (lesson study, microteaching) har bir maktabda yo'lga qo'yish;

5) natijalarni ochiq statistika va ichki benchmarking orqali doimiy monitoring qilish.


Umuman, bir-birimizni emas, o'zimizni tanqid qilaylik; bahsni ayb qidirishdan dalilga ko'chiraylik; jamiyatni ham ilm, ham pedagogika bilan birga rivojlantiraylik. Unutmaylik: ilm – yaratadi, pedagogika – yetkazadi. Qachonki ikkalasi uyg'un ishlashiga natija samarali bo'ladi. Matematika fanidan PISA natijalaridagi ko'rsatkichning pastligi tizimli tahlilni talab qiladi. Shunda uning sabablari to'laqonli oydinlashadi. Lekin ayni paytda ma'lum bitta sabab bor. U ham bo'lsa, ayrim matematiklar tomonidan pedagogika, metodika va didaktikaning qimmatiga yetarlicha baho berilmayotganidir. Bugungi kunda matematika o'qitish metodikasi bo'yicha tadqiqotlar yetarli olib borilmayapti. Matematiklar o'zlarining fani qolib, pedagogikaning boshqa ixtisosliklari bo'yicha tadqiqotlar olib borishmoqda. Nima uchun? Bu savolga javob izlash va topish vaqti keldi.

Adolat nuqtayi nazaridan o'qish savodxonligi masalasiga ham to'xtalishimiz zarur. Bu borada ham PISA natijalaridagi ko'rsatkichimiz "ro'yxatga teskari qaragandagina xursand qiladigan" holatda. Buning ham sabablari o'rganilishi lozim. Bizningcha, ona tili fanidagi an'anaviy yondashuv ko'p hollarda grammatik me'yor va nazariy ma'lumotlarga ustuvorlik berishni nazarda tutadi va bugungi kunda maktablarda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning aksariyati tilshunoslikka shunday yondashuv asosida o'qishgan va shunday o'qitishni ma'qul ko'rishadi. Ammo matn bilan ishlash strategiyalari: ma'noga kirish, xulosa va induksiya, dalillash va inkor, muallif pozitsiyasini anglash, interpretatsiya va transferini(o'rganilganni yangi vaziyatga ko'chirish) tizimli ravishda shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy yondashuvni o'zlashtirishga, shu yondashuv asosida dars mashg'ulotlarini tashkil etishga hafsalasizlik qilishmoqda. Chunki bu yondashuv o'qituvchidan darsga ijodiy va kreativ yondashuvni talab qiladi. PISA esa aynan matn bilan ishlash strategiyalarini baholaydi. Demak, ona tili fani mazmunini "matn markazidagi o'qish"ga ko'chirish, fanlararo o'qish(science & social studies texts), lug'at boyligi va kontekstual ma'no, metakognitiv strategiyalar(rejalashtirish-nazorat-refleksiya) bilan to'yintirish davr talabi. Bu esa o'qituvchidan yangi rollar: fasilitator, moderator, o'qish strategiyalarini namunada ko'rsatuvchi kabi ko'nikma va mahoratlarni talab qiladi. Afsuski, ayni paytda umumta'lim maktablarida dars berayotgan o'qituvchilarning o'zlarida bu borada tushunchalar yetarli deb bo'lmaydi.

Kuzatishlarimizga asosanib, ona tili fanini o'qitishga nisbatan yondashuvni PISA tadqiqotlari talablariga muvofiqlashtirish uchun quyidagi amaliy qadamlarni qo'yish lozim deb hisoblaymiz:

- 1) Malaka oshirish kurslarida maktab o'qituvchilariga PISA talablari asosida dars tashkil etish metodikasini o'rgatish.
- 2) Malaka oshirish dasturlarini modernizatsiya qilish.
- 3) Pedagogik OTMlarda talabalarga PISA tadqiqotlari bo'yicha dars mashg'ulotlarini tashkil qilish metodikasi o'rgatilishi lozim.

Shuningdek, o'qish savodxonligi bo'yicha milliy topshiriqlar bankini yaratish; har bir tumanda namunaviy "metodik markaz-sinf" tashkil etib, darslarni jonli kuzatish va videotahlil orqali o'rgatish; baholashni isloh qilish: format va rubrikalarni kompetensiyaviy asosga ko'chirish, oraliq va yakuniy nazoratlarni PISAgacha yaqin turda kesishtirish; fan dasturlari mazmunini qayta ishlash: hayotiy kontekstlar, modellashtirish, moliyaviy va



ekologiya savodxonligi elementlarini integratsiya qilish; ilmiy-amaliy grantlar orqali ona tilini o'qitish metodikasi bo'yicha dizayn-tajriba loyihalarini qo'llab-quvvatlash; natijalarni ochiq statistika, ichki benchmarking va hisobdorlik bilan doimiy monitoring qilish talab etiladi.

Ona tili darslarida faqat to'g'ri javobni emas, fikr yo'lini talab qilish; nazariy qoidalarni yodlashni emas, model va dalil bilan asoslashni so'rash; matnda ikkilamchi ma'lumotni izlab topish emas, muallif pozitsiyasi va dalillar zanjiriga baho berish kabilar pirovard maqsadga, ya'ni sinfdagi voqelikni o'zgartirishga xizmat qiladi.

Pedagogikaning zamonaviy paradigmalari

Hozirgi zamon ta'limi turli yo'nalish va g'oyalarni qamrab olgan "paradigma" tushunchasi doirasida shakllanmoqda. Paradigma ta'limning maqsadi, mazmuni, o'qitish usullari, baholash va boshqaruv mezonlarini belgilaydigan asosiy tayanch g'oyadir. Bugun dunyoda sanoatning 4.0 va 5.0 bosqichlariga o'tilayotgani, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning rivojlanishi, "yashil" iqtisodiyotga yo'nalish, xalqaro mobillik va ko'p tilli muhit kabi global o'zgarishlar ta'limdan ham yangi vazifa va kompetensiyalarni talab qilmoqda. Shuning uchun mamlakatimiz ta'limi ushbu umumjahon talablarini hisobga olgan holda o'zining zamonaviy pedagogik paradigmalarini belgilashi va ularni milliy sharoitga mos tarzda amaliyotga tatbiq etishi zarur.

Bizningcha, O'zbekiston sharoitida quyidagi paradigmalarni ustuvor deb hisoblash mumkin, zero, ularning har biri PISA, PIRLS, TIMSS, EGRA kabi xalqaro mezonlarga va ichki mehnat bozori ehtiyojlariga mos hamda amaliyotga asoslangan yo'nalishlardir:

1. *Kompetensiyaviy paradigma.* Bu paradigma ta'limda faqat nazariy bilimlarni yodlatish emas, balki o'sha bilimlarni hayotda qo'llay olishga yo'naltirilgan yondashuvdir. Masalan, o'quvchi matematikada formulani yodlashi kifoya emas, balki uni kundalik hayotda hisob-kitoblarda to'g'ri ishlata olishi, muammoli vaziyatga to'g'ri yechim topa olishi kerak. Shuningdek, o'quvchi adabiyotda matnni faqat o'qib chiqish bilan cheklanmasdan, undan ma'no chiqarishi, xulosa qilishi, boshqa vaziyatga ko'chirib qo'llay olishi zarur. Ana shu ko'nikma va qobiliyatlar PISA xalqaro baholash dasturi o'lchovlari bilan ham uyg'un. Demak, kompetensiyaviy paradigma ta'lim natijasini hayotiy samara bilan bog'laydigan eng zamonaviy yondashuv hisoblanadi.

2. *O'quvchi markazidagi va konstruktivistik paradigma.* Bu yondashuvda asosiy e'tibor o'qituvchiga emas, o'quvchiga qaratiladi. Bilim tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchi izlanish, savol berish, o'yin, tajriba va muloqot orqali uni "yaratadi". O'qituvchi esa yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, maslahatchi – ya'ni fasilitator rolini bajaradi.

(Davomi 4-betda.)



PEDAGOGIKA:

FAN TAQDIRI HALOKAT YOQASIDA

(fan va ta'lim dialektikasi haqida mulohazalar)

(Davomi. Boshi 2-, 3-betlarda.)

3. *Integrativ (STEAM) va CLIL paradigmasi.* Bu paradigmadagi fanlar o'zaro bog'lanadi. Masalan, matematika, tabiiy fanlar, san'at va texnologiya birgalikda loyiha sifatida o'qitiladi (STEAM). CLIL esa fanni bir vaqtda xorijiy tilda o'qitish bo'lib, masalan, biologiya darsi ingliz tilida olib boriladi. Bu bilim va tilni bir vaqtda rivojlantiradi.

4. *Raqamli-pedagogik va SIga tayangan paradigma.* Bunda zamonaviy ta'lim raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashadi: gibrid darslar (onlayn va oflayn), raqamli kontent (video, simulyatsiya, platformalar), o'quvchi faoliyati haqida ma'lumot yig'ib tahlil qilish (learning analytics) asosida qaror qabul qilish, sun'iy intellekt (SI) yordamida har bir o'quvchi uchun individuallashtirilgan dars tayyorlash nazarda tutiladi.

5. *Inklyuziv ta'lim va UDL (Universal Design for Learning) paradigmasi.* Har bir bola, imkoniyati cheklanganmi yoki iqtidorlimi – ta'limdan chetda qolmaydi. Dars jarayoni shunday tuziladiki, barcha o'quvchilar uchun qulay va samarali muhit yaratiladi.

6. *Loyiha va muammo yechishga yo'naltirilgan paradigma (PBL/CBL).* Bunda o'quvchilar real hayotdan olingan muammolarni yechish uchun guruh bo'lib ishlaydi, tadqiqot olib boradi, model tuzadi, tadbirkorlik elementlarini qo'llaydi. Bilim amaliyot orqali o'zlashtiriladi.

7. *Shaxsiylashtirilgan va adaptiv ta'lim.* Har bir o'quvchi o'z qobiliyati, qiziqishi va imkoniyatidan kelib chiqqan holda individual trayektoriyada o'qish imkoniga ega bo'ladi. Darslar modulli shaklda bo'ladi, kichik qobiliyatlar (micro-credentials) dasturi orqali natija aniqlanadi.

8. *"O'qitish uchun baholash" paradigmasi.* Baholash faqat "ball qo'yish" uchun emas, balki o'quvchining rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Formativ baholash orqali o'quvchi qaysi jihatda yaxshi, qaysi jihatda yana ishlashi kerakligini anglaydi.

9. *Ijtimoiy-emotsional rivojlanish va fuqarolik kompetensiyalari.* Dars jarayonida faqat bilim emas, balki muloqot, hamkorlik, hissiy savodxonlik va mas'uliyat kabi ko'nikmalar ham shakllantiriladi. Bu paradigma o'quvchini faol fuqaro sifatida tarbiyalashni nazarda tutadi.

10. *Barqaror rivojlanish uchun ta'lim (ESD) va "yashil maktab" madaniyati.* Darslarda ekologiya, tabiatni asrash, resurslarga mas'uliyat bilan qarash, yashil hayot tarzi kabi g'oyalar o'quv jarayoniga kiritiladi. Bunda o'quvchi "ekologik javobgar" shaxs sifatida shakllantiriladi.

Zamonaviy ta'lim paradigmalari shunchaki jimjimador chaqiriq emas, balki jamiyat taraqqiyoti uchun hayotiy zaruratdir. Chunki kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar ish joyida zarur bo'ladigan amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, raqamli va adaptiv modellar shahar va qishloq, boy va kambag'allar o'rtasidagi ta'lim tengsizligini qisqartiradi. Inklyuziv ta'lim va universal dizayn har bir bolaning salohiyatini ochib berishga yordam beradi, "o'qitish uchun baholash" madaniyati natijani barqaror qiladi, ko'p tilli va madaniy javobgar yondashuv esa jamiyat birligi va uyg'unligiga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim paradigmalari amaliyotga tatbiq etish o'z-o'zidan bo'ladigan jarayon emas. Bu jiddiy va uzluksiz pedagogik tadqiqotlar, tajriba-sinov ishlari va ilmiy asoslangan yechimlarni talab qiladi. Avvalo kompetensiyalar, o'qish va matematik savodxonlik, raqamli ko'nikmalar va ijtimoiy-emotsional rivojlanish uchun aniq indikatorlar va o'lchovlar ishlab chiqilishi kerak. Pilot maktablarda dars senariylari, vazifalar banki va videotahlillar asosida sinovlar o'tkazilib, ular tahlil qilinishi va qayta takomillashtirilishi zarur. Shu bilan birga, qaysi paradigma qay sharoitda samarali ishlashini ko'rsatib beradigan qiyosiy tadqiqotlar o'tkazilishi, xarajat va samarani hisoblaydigan iqtisodiy tahlillar olib

borilishi lozim. Yangi pedagog rollari: moderator, fasilitator, mentor, raqamli savodxon mutaxassis, inklyuziya bo'yicha pedagoglar tayyorlanishi uchun standartlar ishlab chiqilishi shart. Bularning barchasi raqamli kontent platformalari, sun'iy intellekt yordamchilari va ochiq ma'lumotlar bazasi orqali qo'llab-quvvatlanishi, shuningdek, tegishli me'yoriy-huquqiy baza bilan ta'minlanishi kerak. Amaliy yo'l sifatida milliy paradigmalarni xaritasini belgilash, har bir yo'nalish bo'yicha namunaviy maktablar tashkil etish, ochiq vazifalar banki yaratish va o'qituvchilar uchun qisqa modulli kurslarni joriy qilish maqsadga muvofiq. Bunday tizimli yondashuv orqali zamonaviy ta'lim paradigmalari haqiqiy samara beradi va milliy ta'lim tizimining global raqobatbardoshligini oshiradi.

Umuman, zamonaviy ta'lim darsni aniq maqsad va yondashuvlarsiz shunchaki tashkil qilishni "ko'tarmaydi". U ilmiy asoslangan yondashuvlar, uzoqni ko'zlagan strategik rejalashtirish va samarali boshqaruv, natijani kafolatlaydigan texnologiya va metodlarni talab qiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlaydigan pedagogik shart-sharoit va mukammal didaktik ta'minot ham zarur. Ana shu maqsadlarga erishish uchun esa fundamental va amaliy pedagogik tadqiqotlarning o'rni beqiyosdir.

Pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlari

Bugungi kun pedagogik tadqiqotlarining yo'nalishlari, avvalo, zamonaviy pedagogik paradigmalarga qaratilishi shart. Chunki jamiyat hozir global raqamlashuv, sanoatning 4.0/5.0 bosqichlarga o'tishi, sun'iy intellekt, barqaror rivojlanish, ko'p tilli muhit, inklyuziya, kompetensiyaviy baholash kabi talab va sharoitlar bilan yashayapti. Demak, tadqiqot mavzulari ham ana shu talablar bilan uyg'un bo'lishi kerak: o'qish va matematik savodxonlikni hayotiy kontekstlarda shakllantirish, STEAM va CLIL integratsiyasi, raqamli-pedagogik texnologiyalar va SI yordamida individuallashtirish, "o'qitish uchun baholash" (formativ baholash) madaniyatini mustahkamlash, inklyuziv ta'lim va UDL tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish, ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish, barqaror rivojlanish uchun ta'lim (ESD) hamda oila-maktab-jamoa hamkorligini kuchaytirish kabi yo'nalishlar ustuvordir. Ammo amaliyotda ko'p hollarda boshqa manzaraga duch kelmoqdamiz: bir-biriga o'xshash, umumiy ifodadagi mavzular ko'p, ularning dolzarbligi esa yetarlicha asoslanmagan. "Bugun ham, o'n yildan keyin ham qilinsa bo'ladigan" mavzulardagi tadqiqotlar ilmiy resurslarni samarasiz sarflash demakdir. Bizningcha, bu holatni cheklashning eng to'g'ri yo'li tadqiqot mavzularini ilmiy jamoatchilik tomonidan ochiq muhokamadan o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yishdir. Ochiq muhokama mavzuni "zeb-u ziynat"dan tozalaydi, milliy va xalqaro mezonlar asosida dolzarblikni tekshiradi, takrorlanish (dublikat) xavfini kamaytiradi, eng muhimi, natijaning ta'lim tizimiga ta'sirini oldindan bashorat qiladi.

Pedagogik tadqiqotlar mavzusini tanlashda qat'iy "filtrlar" kerak. Bular quyidagilar bo'lishi mumkin:

– Dolzarblik asosi: milliy ko'rsatkichlar (o'qish/matematik savodxonlik, PISA/TIMSS indikatorlari), mehnat bozori va hududiy ehtiyojlar bilan bog'liq aniq muammo bayoni;

– Adabiyot kartasi: tizimli sharh orqali mavzuning yangi qiymatini ko'rsatish va dublikatlarni fosh etish;

– Ilmiy gipoteza: tekshiriladigan, o'lchanadigan, mavjud pedagogik shart-sharoit va kontekstga sezgir gipoteza va aniq metodologiya (aralash usullar, dizayn-tajriba, replikasiya rejasi);

– Amaliyotga ko'chirish rejasi: tajriba-sinov obyektlari, dars senariylari, topshiriqlar banki, baholash rubrikalari, o'qituvchilar uchun mikromodullar;

– Ta'sirni o'lchash: indikatorlar, monitoring va ochiq hisobdorlik.

Tadqiqot mavzusi tashabbusi avval qisqa tezis sifatida jamoatchilik seminarida muhokama qilinadi; ekspert xulosasiga ko'ra to'liq loyiha ishlab chiqiladi va reyestrda kiritiladi; shundagina empirik bosqichga ruxsat beriladi. Bizningcha, bunday tartibni ma'muriy to'siq sifatida emas, balki sifat kafolati: jamoatchilik nazorati, takrorlanish xavfini pasaytirish, natijalarni amaliyotga ko'chirish uchun tayyor infratuzilma yaratish sifatida ko'rish mumkin.

Umuman, bugun pedagogika ilmi fundamental tadqiqotlar, aniq metodologiya, ochiq ma'lumotlar va siyosiy iroda talab qiladigan jarayonda turibdi. Bunda faoliyatga aloqador har bir subyektning qat'iy funksiyasi mavjud: ilmiy jamoatchilik mavzularni saralashda xolis "filtr" vazifasini o'tashi; OTMLar dizayn-tajriba laboratoriyasi; Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va hududiy boshqarmalar masshtablash va me'yorlarni yangilash markazi; maktablar jonli sinov maydoni vazifasini bajaredi. Bizningcha, shundagina pedagogik tadqiqotlar haqiqiy yo'nalishini topadi, paradigmalarni amaliyotga ko'chadi.

Monopoliyaga qarshi fan madaniyatini shakllantirish

Shu o'rinda o'zbek ilm-fanidagi yana bir og'riqli muammoga to'xtalish lozim. Bu muayyan fanlarni ayrim shaxslar tomonidan monopolashtirish bilan bog'liq. Af-suski, ba'zan bir fanning rivoji, uning konseptual yo'nalishi yoki ilmiy siyosati butunlay bir-ikki shaxsning qarashlari, fikrlari, hatto kayfiyatiga bog'lanib qolmoqda. Buning natijasida butun ilmiy maktabning kelajagi shaxsiy ambitsiyalar girdobida qolish xavfi kuchaymoqda. Bu esa haqiqiy ilmiy muhit uchun eng katta xavf hisoblanadi.

Fanni monopolashtirishning salbiy oqibatlarini juda ko'p. Ularning ayrimlariga to'xtaladigan bo'lsak, birinchi navbatda, ilmda plyuralizm yo'qoladi: turli fikr va yondashuvlar, yangi g'oyalar uchun ochiq muhit yo'qqa chiqadi. Ikkinchidan, sog'lom raqobat yo'qoladi – raqobatsiz muhitda innovatsiya ham bo'lmaydi. Uchinchidan, har qanday yangicha g'oya, kashfiyot yoki noyob ishlanma ayrim "qirollar" nomi bilan bog'lanib, ilmiy jamoatchilikka taqdim etiladi. Natijada, haqiqiy mehnat qilgan tadqiqotchi e'tiborsiz qoladi, fanning rivoji esa sun'iy to'siqlarga duch keladi. Aslida esa ilm haqiqatni izlash yo'lidir. Ilmda bir kishining "ustozligi" doimiy bo'lolmaydi. Bir shaxs qanchalik kuchli bo'lmasin, butun sohani yagona o'zgarmas hukmronlik bilan boshqarib tura olmaydi. Fan – avlodlar izlanishining mahsuli. Bir olimning hissasi tarixning ulkan sahifalarida o'ta kichik bir nuqta, xolos. Shu haqiqatni anglamay turib, ilm maydonini monopoliyaga aylantirish fanning yo'lini to'sishdan boshqa narsa emas.

Umuman, ilmning kuch-quvvati aynan ko'p ovozlilikda, xilma-xil yondashuvlar va sog'lom bahslarda namoyon bo'ladi. O'zbek ilm-fanida monopolashtirish illatiga qarshi turish jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti uchun zarur va bu muayyan irodani talab qiladi. Ilm uning xizmat qilgan barcha avlodlarning mulkidir, u bir shaxsga tegishli emas. O'zbek ilm-fanida monopoliyaga qarshi madaniyatni shakllantirish – davr talabidir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, pedagogika – bu faqat ta'lim berish va tarbiyalash usullari haqidagi nazariyagina emas, balki inson kamoloti, millat ma'naviy qiyofasi va kelajak taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega fan. Uni inkor etish ta'lim va tarbiyadan, demakki, insoniyatning ertangi kunidan voz kechish bilan barobar. Ilm olamida bag'rikenglik va xolislik ustuvor bo'lmog'i shart: har bir fan o'z o'rnida qadrli, har bir yo'nalish umumiy taraqqiyot zanjirining zarur bo'g'inidir. Pedagogik tadqiqotlarga hurmat bilan qarash, ularning natijalarini qo'llab-quvvatlash bu o'quvchi shaxsiyati, millat kelajagi, butun insoniyat taraqqiyoti oldidagi ma'naviy burchimizdir.

Umid XO'JAMQULOV,
CHDPU professori, pedagogika fanlari doktori



Gurung

TA'LIM: yutuq va muammolar



Bugun ta'lim olish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Dunyo-ning eng nufuzli ta'lim dargohlari-da o'qish, bilim va xorij tajribasini o'zlashtirish uchun hech qanday to'siq yo'q.

Toshkent davlat yuridik universitetida dunyoning ko'plab oliy ta'lim muassasalari bilan tuzilgan xalqaro hamkorlik shartnomasi asosida talabalarining xorijda tahsil olib kelishi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shunday hamkorlikning samarasi o'laroq, universitet talabasi Odilbek Irisqulov o'tgan 2024-2025-o'quv yilida Angliyaning Oksford universiteti Huquq fakulteti magistraturasida tahsil olib qaytdi. U 2000-yili Jizzax viloyati Zarbdor tumani Oqbulov qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilgan. Ilmga chanqoqligi, izlanuvchanligi, o'z maqsadi tomon olg'a intilishi sabab bugun nufuzli Oksford universitetining magistrlik diplomiga ega bo'ldi. Yaqinda Odilbek Toshkent davlat yuridik universitetiga ishga qabul qilindi. Yosh o'qituvchi bilan suhbatlashdik.

– **Odilbek, o'ylaymanki, Oksforddan bir olam orzu va maqsadlar, rejalar bilan qaytidingiz. Shular xususida siz bilan suhbatlashsak.**

Oksford ko'pchilikning orzusi. Avvalo, Oksford universiteti, uning huquq maktabi haqida qisqacha ma'lumot bersangiz. Shunday nufuzli ta'lim dargohida o'qishga qanday erishdingiz?

– 2019–2023-yillari Toshkent davlat yuridik universitetining Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik yo'nalishida tahsil olganman. Bu davrda ta'lim jaryonida hali yirik-yirik "egalari" shakllanmagan sohalarni izlash va o'sha egasiz sohada "ega"lardan biri bo'lish ishqini meni intellektual mulk huquqiga olib keldi. Tabiiyki, dunyodagi intellektual mulk huquqi (IP Law)

bo'yicha eng zo'r huquq maktabini izladim. Bildimki, Oksford huquq maktabi bu o'rinni hech kimga bermay kelayotgan ekan. Zamonaviy intellektual mulk huquqining "otalari" – Robert Burrell va Dev Ganjilar ham ayni Oksfordda dars berishar ekan. O'qishga qabul qilish talablarini topdim. Universitet bitiruvchilari bilan suhbatlashdim, Oksfordga munosib nomzod bo'lish uchun o'zimni tayyorlab bordim. Shu sa'y-harakatlarim natijasida, shukurki, Oksford universitetida intellektual mulk huquqi bo'yicha magistraturada o'qish imkoniyatiga ega bo'ldim.

Oksford – jahondagi qadimiy va nufuzli ilm dargohlaridan biri. U yerdagi muhit, ayniqsa, kutubxonalar, o'z sohasining eng malakali professorlari bilan muloqotlar – bularning barchasi insonning nafaqat ilmiy darajasi, balki fikrlash doirasini kengaytiradi. Men uchun katta saboq shu bo'ldiki, maqsad aniq bo'lsa, intizom va mehnat bilan har qanday orzuga yetish mumkin. Yoshlarga samimiy taklifim(maslahat berishga bizga hali bor) – o'zingiz chindan sevgan yo'nalishni toping, shu sohada jiddiy mehnat qiling va chet el tajribasini o'rganishdan qochmang.

– **Sizningcha, O'zbekiston va xorij ta'limini o'zaro qiyoslaganda ta'limimizdagi yutuqlarimiz qaysi? Xorijda-chi?**

– Eng asosiy ustuvorlik bu – narx. Universitetlarimizda o'qish arzon. Lekin baribir Oksford ta'limini yaxshiroq degan bo'lar edim, garchi bu vatanparvarlik hissisiz aytilgan jumla bo'lsa-da. Xorijda nazariya bilan bir qatorda amaliyot va tahlil qilish ko'nikmalariga ham katta ahamiyat qaratiladi. Ya'ni masalani kitobdan o'qib olish emas, balki mustaqil fikr bildirish, tahlil qilish va yozma hamda og'zaki chiqishlarda asosli himoya qilish muhim hisoblanadi.

– **Muammolarimiz nimada? Oliy ta'limda**

ko'proq nimaga e'tibor berish kerak? Oksfordda ta'lim berish usullari qanday?

– Bizdagi asosiy muammo – amaliy mashg'ulotlarga yetarli e'tibor berilmasligi. Talabalar ko'pincha nazariya bilan cheklanib qoladi. Holbuki, huquqshunos uchun amaliyotda to'plangan ko'nikmalar juda zarur. Oksfordda esa ma'ruza yoki seminardan ko'ra ko'proq mustaqil tahlil va real amalda ketayotgan sud ishlari bo'yicha topshiriq yozishga urg'u beriladi. Darslar talaba fikrlashiga qaratilgan, o'qituvchi tayyor bilim bermaydi, balki savollar bilan yo'naltiradi. Shu uslub bizda ham kengroq joriy etilsa, natija yanada yaxshi bo'lardi.

– **Oksfordda sizga saboq bergan professor-o'qituvchilarning faoliyati va huquq sohasida erishgan yutuqlari haqida nima deya olasiz?**

– U yerdagi professorlarning katta yutug'i – nazariy bilim bilan amaliy tajribani uyg'unlashtirishga qodirligida. Masalan, ustozlarimdan ba'zilari jahon miqyosida tanilgan olim, bir vaqtning o'zida xalqaro sud ishlarida qatnashadigan huquqshunoslar edi.

– **Ayni damda Toshkent davlat yuridik universitetining "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasida o'qituvchi sifatida faoliyat boshladingiz. Rejalaringiz qanday?**

– Ha, ayni vaqtda TDYU talabalariga bilimlarim asosida saboq beryapman. Asosiy rejam – intellektual mulk huquqini chuqur o'rgatish, talabalarda mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish. Shuningdek, xalqaro tajribani yurtimizda tatbiq qilish, yoshlarimizni dunyodagi nufuzli universitetlarda o'qishga tayyorlashni maqsad qilganman. Nasib, qanchasiga erishamiz, qanchasiga yo'q, vaqt ko'rsatadi.

TDYU "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası dotsenti Nasiba BOZOROVA suhbatlashdi.

Jarayon

“PhD sari qadam” – ayol-qizlar ilmi yo'lida



Yildan yilga yurtimizda ilm olishga qiziqish bildirayotgan ayol-qizlar soni ortib bormoqda. “PhD sari qadam” loyihasi ana shunday ilmga chanqoqlarni yuzaga chiqarayotgan loyihalardan biri.

Loyiha Yoshlar ishlari agentligi hamda Respublika yosh olimlar kengashi tomonidan tashkil etilgan bo'lib, 12 ta davlat tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. “Phd sari qadam” loyihasi 3-mavsumiga 1000 ga yaqin talabgorlar ishtirok etish istagini bildirishdi. Ulardan 120 nafari saralab olindi. Tanlov uch bosqichda tashkil etildi: ariza yuborish, saralash, suhbat.

Oxirgi bosqich suhbat bo'lib, unda besh nafar hay'at a'zolari ishtirokchilarni notiqlik san'ati, erishgan yutuqlari va maqsadlariga qarab baholadilar. Loyihada ishtirok etish yosh chegarasi 25 yoshdan 40 yoshgacha etib belgilangan. Barcha talablarga mos talabgorlar loyihaga qabul qilindi va rasman loyiha g'oliblari deb e'lon qilindi. Har bir g'olib ishtirokchiga 11 million so'mlik grantlar ajratildi. Loyiha darslari 6 modul asosida shakllantirildi:

1. *Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi.*
2. *Ilmiy ish yangiligini loyihalash.*
3. *Ilmiy ishni to'g'ri rasmiylashtirish va adabiyotlar bilan ishlash.*

4. *Tadqiqotchining notiqlik san'atini shakllantirish.*

5. *Himoya jarayonlariga psixologik tayyorgarlik.*

6. *Amaliyot bosqichi.*

Har bir ishtirokchi kun tartibiga amal qilgan holda modul asosida shakllantirilgan dars jarayonlarida ishtirok etdi. Shuningdek, darslarni filologiya fanlari doktori(DSc), professor Nilufar Abdurahmonova, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD) Zokir Zamonov, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent Aziz Zikriyoyev, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) Nazokat Yusufjonova, PhD Charos Mirxoliqova hamda filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent Dilfuza Abbosovalar yuqori saviyada olib bordilar. Haqiqiy ilm yuqumli, qachonki ilmni sevuvchilar davrasida bo'lsang. Loyiha davomida ishtirokchilar guruhlariga ajratildi va rahbarlar tayinlandi. Har bir ma'ruzachi dars jarayonlaridan tashqari o'zlariga birlashtirilgan guruhlar bi-

lan turli seminar-treninglar olib bordi. Bu esa ustoz va shogirdlik aloqalarini yanada mustahkamladi.

Loyiha doirasida ustozlardan plagiatga qarshi kurash, manbalarni to'g'ri ko'rsatish, mualliflik huquqiga hurmat, eksperimentlar va tahlil natijalarining haqqoniyligi, ilmiy maqola yozish ko'nikmalari, matematik-statistik tahlil, nutqni to'g'ri shakllantirish, tadqiqot ishini me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etish, ilmiy loyihalar yaratish ko'nikmalarini o'rgandik.

Loyiha ishtirokchilari ilmiy ko'nikmalar bilangina cheklanib qolmasligi uchun turli konferensiyalar, davra suhbatlari, davlat tashkilotlari hamda muzeylarga sayohat ham uyushtirildi. Jumladan, O'zbekiston Ekologik partiyasi markaziy kengashida Respublika yosh olimlar kengashi bilan hamkorlikda “Ekologik muammolar yosh olimlar nigohida” mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi. Tadbirda Respublika yosh olimlar kengashi raisi Sayyora Saidova so'zga chiqib, atrof-muhitga e'tibor va ekologik madaniyatni oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanini ta'kidladi. Ishtirokchilar ham o'z fikr-mulohazalarini ochiq bayon etib, fikr almashdilar. Keyin loyiha qatnash-

chilari Oliy Majlis Qonunchilik palatasida bo'lib o'tgan O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etdilar. So'ng yosh olimlar “Zakovat” arenasida zakovat-intellektual o'yinida jamoaviy kuch sinashdi. O'yin ishtirokchilarning bilim darajasi, fikrlashi, salohiyati va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini yanada oshirdi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida olimlar mashhur eronlik tilshunos olim, til va ta'lim professori Reza Pishgadam hamda Kolumbiya universitetining ilk o'zbek professori Aziza Shonazaro-va bilan uchrashib, ilmiy-tadqiqot ishi uchun zarur ko'nikma va maslahatlarni oldi. Mustaqillik bayrami arafasida esa ishtirokchilar Senat binosida senatorlar bilan uchrashdilar.

Ilm – ummon. Ilmiy yo'l esa ummon qirg'og'i. Qirg'oqqa yetish uchun, avvalo, ummondan suzib o'tish talab etiladi. Nilufar Abdurahmonova aytganidek, “Hamma ham ilm yo'lini tanlolmaydi. Ilm yo'lga kirdingmi, tavozeni mahkam ushla. Ilmda, avvalo, tavoze kerak”.

Shahrizoda QO'ZIYEVA,
UrDU magistranti,
“PhD sari qadam” loyihasi
3-mavsum ishtirokchisi

Sinab ko'ring

O'quvchilarni og'zaki hisoblashga o'rgatish usullari (4K tamoyili asosida)

Matematikadan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining bu fanga qiziqishlarini oshiradi, fikrlash doirasini kengaytiradi, bilimga, mehnatga bo'lgan intilishlarini rivojlantiradi, har bir mavzuni chuqur va puxta o'zlash-tirishlariga imkon beradi. Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarini og'zaki hisoblashga o'rgatishning matematika to'garaklarida qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta usul(o'yin)larini ko'rib chiqamiz.

1. "Hushyor bo'l, to'g'ri hisobla" (Kollaboratsiya)

Bu o'yinda 20 nafar o'quvchi ishtirok etadi. Ular ikki guruhga bo'linib, bir-birlariga qarama-qarshi turadilar. Birinchi guruhdagi har bir o'quvchiga ko'k qog'ozga yozilgan 0 dan 10 gacha bo'lgan raqam beriladi. Ikkinchi guruh o'quvchilariga esa xuddi shu raqamlarning qizil qog'ozga yozilgani beriladi. So'ng har bir guruh oldiga ikkita stul qo'yiladi. O'qituvchi baland ovozdagi qo'shish yoki ayirishga doir ifoda aytadi. Masalan, $20+15=?$ Ikkala guruh natija(35)ni og'zaki hisoblashadi va qo'lida 3 va 5 raqami bo'lgan o'quvchilar tezlik bilan qo'yilgan stulga berilgan ifoda natijasini o'qiy oladigan holda o'tirishlari kerak. Ko'p (10) ball to'plagan guruh g'olib hisoblanadi.

2. "Ziyrak xaridor" (Kommunikativlik)

Bu o'yinda o'qituvchi o'quvchilar bilan birga yaqinroqdagi oziq-ovqat do'koniga boradi. O'quvchilarga onalari 50 ming so'mdan pul berib, unga non mahsulotlari (obinon, bulochka, buxanka) sotib olish, shu puldan teatrga tushishi uchun 10 mingdan olib qolishi va xarid qilingandan qolgan qaytimini onasiga qaytarib berishni buyurgan deb faraz qilishlari aytiladi. Rahbar buni o'quvchilarga tushuntiradi. So'ng sotuvchi bilan kelishgan holda har bir o'quvchi xaridni amalga oshiradi. Kimdir to'g'ri hisob-kitob qiladi, kimningdir puli yetmaydi. Shu yerda o'qituvchi o'quvchilarga ham xarid qilishda matematik bilim qanchalik kerakligini tushuntiradi, ham pul bilan muomala qilish san'atini o'rgatadi, va albatta, uyga bor-ganda ota-onasiga bugungi mashg'ulot haqida aytib berish vazifasi beriladi.

3. "Kvadrat maydonini teng to'rt bo'lakka bo'lish" (Kreativ fikrlash)

Bu o'yinda o'quvchilarga tarqatma tarqatiladi. Unda kvadrat 36 ta teng katakka bo'lingan. Har qaysi katakka raqamlar (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9) joylashtirilgan. Har qaysi raqam 4 marta takrorlanadi. Kvadrat maydonini to'rtta teng qismga shunday bo'lish kerakki,

bunda har bir qismda 9 ta raqamning hammasi bo'lishi kerak. Natija tez hosil bo'lmaydi, lekin o'quvchilar bu murakkab masalani yechganlaridan keyin juda xursand bo'ladilar. Oxirida to'g'ri javob beriladi.

4. "Hisobla, qirq va yopishtir" (Kritik – tanqidiy fikrlash)

O'quvchilarga tarqatma tarqatiladi. Tepasida ifodalar, pastida ifodaning javobi rasm bo'lagiga yozilgan bo'ladi. O'quvchilar ifodani hisoblab javobini topadi va javob yozilgan rasm bo'lagini qirqib ifodaning ustiga yopishtiradi. Natijada yaxlit rasm hosil bo'ladi. To'g'ri va birinchi bajargan o'quvchi g'olib bo'ladi.

Ko'rinadiki, bugungi kunda ta'lim tizimiga kiritilgan "4K modeli"ni nafaqat dars jarayonida, balki darsdan tashqari jarayonda ham qo'llash mumkin ekan. Ushbu tamoyil sinfdan tashqari ishlarda ham qo'llanishi o'quvchilarga mavzu yanada tushunarli bo'lishi bilan birga hayotga tatbiq eta olishiga ham zamin yaratadi, ya'ni o'rganilgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini paydo qiladi.

Charosxon TOYIROVA,
Beshariq tumanidagi
3-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Zamonaviy ta'lim

Darslarga zamonaviy yondashamiz

Ta'lim tizimi kundan kunga jadal rivojlanib, an'anaviy o'qitish uslublariga zamonaviy innovatsion yondashuvlar qo'shilmog'da. Innovatsion yondashuv – ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va kreativ metodlardan foydalanishdir. Boshlang'ich sinflarda yangi metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega, chunki bolaning ta'limga bo'lgan munosabati aynan shu bosqichda shakllanadi. Boshlang'ich sinflarda qo'llaniladigan innovatsion usullar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda multimedia darslari, interaktiv o'yinli dasturlarni tashkil etish; o'quvchilarni muayyan mavzu bo'yicha ijodiy loyihalar ishlab chiqishga undash; interaktiv va rolli o'yinlar orqali bolalar diqqatini jalb qilish va ularning faol ishtirokini ta'minlash; masala va muammolarni ko'ndalang qo'ygan holda bolalarni fikrlashga va muammoni mustaqil hal qilishga o'rgatish.

Innovatsion yondashuvlar natijasida o'quvchi faolligi va qiziqishi ortadi, ta'lim individual yondashuv asosida olib boriladi, mustahkam bilim berish imkoni ortadi, o'qituvchi-o'quvchi muloqoti yaxshilanadi.

Maktabimizda 3-sinf o'quvchilari "Mening Vatanim" mavzusidagi loyihada ishtirok etishdi. Har bir o'quvchi qishlog'imizdagi tarixiy obidalar rasmini chizib, qisqa matnlarda taqdimot qilishdi. Bu orqali ular milliy iftixorni his qildi va mustaqil izlanish ko'nikmasini ham rivojlantirdi. "Kim tezroq javob beradi?" – raqamli o'yin ham tashkil qilindi. Ushbu o'yin raqamlarni taqqoslash, hisoblashda tezkorlik va diqqatni oshirishga yordam berishi o'z isbotini topdi. "Sizningcha, yaxshi do'st qanday bo'ladi?" degan savol atrofida muhokama tashkil etildi. Bolalar fikr almashdilar, kerakli so'zlardan foydalanib matn tuzishdi. Bu usul nutqiy rivojlanishni rag'batlantirdi.

Misollardan ko'rinib turibdiki, innovatsion yondashuvlar faqatgina bilim berish emas, balki bolalarni jamiyat uchun faol, mustaqil, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Biroq innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishga moddiy-texnik baza yetishmasligi, o'qituvchilarning innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tayyorlik darajasi, vaqt jadvalidagi cheklovlar xalaqit berishi mumkin. Bu muammoni hal etish uchun o'qituvchilarni muntazam malaka oshirish kurslariga jalb qilish, ta'lim muassasalarini zamonaviy texnika va resurslar bilan ta'minlash zarur.

Matluba BOLTAYEVA,
Hazorasp tumanidagi
4-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Tajriba

Bugungi globallashuv davrida har bir davlatning taraqqiyoti – ilm-fan, texnologiya hamda ta'lim-tarbiya sifatiga chambarchas bog'liq. Yangi davr talabi esa – nafaqat bilimli, balki ijodkor, yangilik yaratadigan, muhandislik tafakkuri rivojlangan mutaxassislarini tayyorlashdan iboratdir. Shu ma'noda, "Ijodkor muhandis – kelajak bunyodkori" shiori zahirida yurtimiz taraqqiyo-tining poydevori mujassamdir.

Ijodkor muhandis – kelajak bunyodkori

Muhandislik insoniyat tarixida eng yirik sivilizatsion sakrashlarga sabab bo'lgan sohaga aylanib ulgurgan. Qadimiy ko'priklar, obodonlashtirish inshootlari, bugungi kunda esa zamonaviy sanoat korxonalari, innovatsion shaharsozlik loyihalari – barchasi muhandislik fikrining mahsulidir. Chirchiq davlat pedagogika universitetida yoshlarni zamonaviy muhandislik va pedagogik tafakkur ruhida tarbiyalash borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

Muhandislik grafikasi va axborot texnologiyalari fanlari zamonaviy kompyuter dasturlari (AutoCAD, SolidWorks, 3D Max va boshqalar) asosida o'qitilib, talabalarda nafaqat chizma bilimlar, balki amaliy loyiha yaratish ko'nikmalari shakllantirilmoqda.

Ijodkorlikni rivojlantirish maqsadida "Startup loyihalar" tanlovlari, innovatsion ko'rgazmalar va talabalar klublari faoliyat yuritmoqda. Bu jarayonlarda muhandislikka ixtisoslashgan talaba-yoshlar o'z g'oyalari asosida ijtimoiy foydali loyihalarni taqdim etmoqda.

Integratsiya va hamkorlik tamoyiliga ko'ra, universitet sanoat korxonalari bilan hamkorlikda amaliy darslar va ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil qilmoq-

da. Bu esa nazariy bilimlarning hayotiy jarayonlarda sinovdan o'tishini ta'minlaydi.

Ijodkor muhandisning uch asosiy si-fati:

1. Texnik bilim va ko'nikma – fan-texnika yutuqlarini o'zlashtirish va amalda qo'llay olish.

2. Ijodiy tafakkur – mavjud muammo-ni yangicha yondashuv bilan hal eta olish, innovatsion yechimlar taklif qilish.

3. Ijtimoiy mas'uliyat – yaratilgan mahsulot yoki loyiha jamiyat hayotini yaxshilashga xizmat qilishi.

"Ijodkor muhandis – kelajak bunyodkori" degan g'oya Chirchiq davlat pedagogika universiteti misolida hayotiy tasdig'ini topmoqda. Zero, bu dargohda ta'lim olayotgan yoshlar ertangi kun bunyodkorlari, Vatan taraqqiyoti uchun yangilik yaratuvchi ijodkor muhandislar bo'lib shakllanmoqda. Kelajakda ular nafaqat yurtimizdagi ta'lim tizimi, balki butun jahonning ilmiy-texnik va pedagogik salohiyatiga hissa qo'shadigan avlod bo'lib yetishadilar.

Bunyodbek ABDULAZIZOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Muhandislik va kompyuter grafikasi"
kafedrası o'qituvchisi

Dars – muqaddas



Xabaringiz bor, joriy o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarida haftaning dushanba kuni "Kelajak soati" darslari o'tilishi yo'lga qo'yildi. 1998-yildan boshlangan pedagogik faoliyatimga nazar soladigan bo'lsam, hozirga qadar ushbu dars nomi "Tarbiyaviy soat", "Ma'naviyat soati" va "Sinf soati" deya atalib kelindi. To'g'risi, dastlab "Kelajak soati"ni ham sinf rahbarlari o'tishi lozim bo'lgan darsning nomi o'zgaribdi-da, deb doimgidek oddiygina qabul qilib qo'ya qoldim. Ushbu yuzaki qarashim bugun qalam olishga undadi, ya'ni shakligagina qarab oldindan bergan bahom o'zini oqlamadi, aksincha, bir oydan buyon tashkil etilayotgan darslar shunchaki nomi bilan emas, maqsadi va mazmuni ham tamomila o'zgarganligini ko'rsatayotgani jarayonga xolis nazar solishga chorladi.

"KELAJAK SOATI" – HAYOT SABOQLARI

E'tiborimni tortgan birinchi omil bu – rejalashtirilgan mavzular. Qarang, birinchi sinfdan bitiruvchi sinfgacha bir xil dars mavzusi. Ikkinchisi, sinflarning o'quvchi yoshining psixologik xususiyatlari mutanosibligini ta'minlab guruhlanishi: 1–4-sinf, 5–8-sinf, 9–11-sinf. Uchinchisi, bir mavzu doirasida hayotiy realliklar asosida o'sib boruvchi bilimning taqsimlanishi; o'quvchining qabul qilishi hisobi olingan holda taqdim etilgan darajalangan ma'lumotlar majmuyi. Bundan tashqari, sinf rahbariga metodik yordam – darsning metodologiyasi va senariysi. Aniq maqsad va kutiladigan natijani avvaldan bilishingiz nafaqat vaqtdan unumli foydalanishni, bilim berish, shuningdek, o'quvchining yangi bilimni qabul qilish samaradorligini oshiradi. Eng muhimi, haftalik darslarni boshlab beruvchi mash'ala misol hayotiy saboq! Keling, jarayonni tahliliy munosabat bilan ifodalasak.

"Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" mavzusida tashkil etilgan birinchi "Kelajak soati" darsi xususidagi mulohazalarimni ifodalamasdan, "Bilim nima uchun kerak?" mavzusiga bag'ishlangan 2-darsni tahlil qilishni lozim deb bildim. Chunki odatda har yangi o'quv yilining birinchi darsi hisoblangan "Mustaqillik darsi"ning tavsivaviy namunasi vazirlik tomonidan taqdim etilardi. Bu esa 1-mavzuning shakli, maqsadi va mazmuniga yaqin bo'lgan.

"Bilim nima uchun kerak?" darsining metodologiyalarida berilgan aniq maqsad va kutiladigan natijalarga e'tibor beraylik:

1–4-sinflar uchun:

Aniq maqsadlar:

1. "Bilim" tushunchasini o'z so'zlari bilan tushuntirish. 2. Bilimning hayotdagi ahamiyatini oddiy va hayotiy misollar orqali izohlash. 3. Kitob, maktab va o'qituvchining o'rnini anglash. 4. Bilimli inson obrazini tasavvur qilish va kelajak kasbini tanlash. 5. Bilimni qayerdan va qanday olish mumkinligini tushunish.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy darajada:

"Bilim" tushunchasini o'z so'zlari bilan izohlaydi; bilimning hayotdagi ahamiyatini oddiy va hayotiy misollar orqali tushuntira oladi; "Aqlli, bilimli inson" obrazini tasavvur qiladi va kelajakda kim bo'lishini ayta oladi; maktab, kitob va o'qituvchining ahamiyatini angelaydi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda: bilim olishga bo'lgan qiziqish va intilishni oshiradi; kitob, maktab va o'qituvchiga nisbatan hurmat va mehr-muhabbatni kuchaytiradi; bilimli bo'lish orqali jamiyatga foyda keltirish istagini uyg'otadi.

3. Amaliy ko'nikmalarda: "Bilim nima uchun kerak?" savoliga to'liq va aniq javob bera oladi; bilim olish uchun kundalik hayotda kitob o'qish, savol-javoblarda faol ishtirok etish va o'rganishga odatlanadi; o'z bilimni hayotdagi real vaziyatlarda qo'llaydi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan: bilimning jamiyat rivojidadagi o'rnini angelaydi; o'zaro yordam, hamkorlik va ijobiy muloqot muhitini shakllantiradi; o'quvchida fuqarolik burchi va Vatanga xizmat qilish hissini mustahkamlaydi.

5–8-sinflar uchun:

Aniq maqsadlar:

1. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqish va intilishlarini oshirish hamda bilimning inson hayotidagi ahamiyatini tushuntirish. 2. O'quvchilarga bilim orqali shaxsiy kamolotga erishish mumkinligini anglatish va bu yo'lda aniq maqsad qo'yishlarini rag'batlantirish. 3. O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va imkoniyatlar haqida aniq tasavvur berish. 4. O'quvchilarda bilim orqali jamiyat va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shish istagini shakllantirish hamda bu yo'lda faol harakat qilish motivatsiyasini kuchaytirish.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. O'quvchilar "bilim"ni "axborot" va "ko'nikma"dan farqlab, uning shaxs, jamiyat va Vatan taraqqiyotidagi rolini izohlaydilar. 2. Bilimi orqali yuqori natijalarga erishgan tengdoshlarini

taniydi va Yangi O'zbekiston islohotlari yaratgan ta'lim imkoniyatlarini anglaydilar. 3. Qattiq (hard) va yumshoq (soft) ko'nikmalarning farqini tushuntiradilar. 4. O'rganganini kundalik hayotda qo'llaydi (masala yechish, matn tahlili, xavfsizlik, tejamkorlik, ekologik xulq). 5. Samarali o'qish odatlarini ishga soladi: maqsad qo'yish, qisqa reja, savol berish, konspekt qilish; shaxsiy portfolio yuritishni boshlaydi. 5. Ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shgan ajdodlar ixtiolaridan xabardor bo'ladi.

9–11-sinflar uchun:

Aniq maqsadlar:

1. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqish va intilishlarini oshirish hamda bilimning inson hayotidagi ahami-

yatini tushuntirish. 2. O'quvchilarga bilim orqali shaxsiy kamolotga erishish mumkinligini anglatish va bu yo'lda aniq maqsadlar qo'yishlarini rag'batlantirish. 3. O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va imkoniyatlar haqida aniq tasavvur berish. O'quvchilarda bilim orqali jamiyat va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shish istagini shakllantirish hamda bu yo'lda faol harakat qilish motivatsiyasini kuchaytirish. 4. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yurtimiz kelajagi siz, aziz farzandlarimiz qo'lida"; "Bugun yaxshi o'qisam va ezgulik qilsam, ertaga O'zbekiston yanada yorug' bo'ladi".

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. O'quvchilar "bilim"ni "axborot" va "ko'nikma"dan farqlab, uning shaxs, jamiyat hamda Vatan taraqqiyotidagi rolini izohlaydilar. 2. Bilim manbalarini sanaydilar (darslik, ustoz, kutubxona, ishonchli internet, tajriba). 3. O'qishga ijobiy munosabat va ichki motivatsiya shakllanadi ("har kuni bir yangi narsa o'rganaman"). 4. Samarali o'qish odatlarini ishga soladi: maqsad qo'yish, qisqa reja, savol berish, konspekt qilish; shaxsiy portfolio yuritishni boshlaydi. 5. Bilimini boshqalar bilan baham ko'radi (minitaqdimot, "bir-biriga o'rgatish") va o'qituvchi bilan muntazam feedback almashadi.

E'tibor berdingizmi, maqsad, vazifa va natijalar guruhlararo darajalangan. **Oddiylikdan murakkablikkacha...** Ko'p yillik pedagog sifatida bu holatni ijobiy baholadim.

Endi amaliyotga o'tsak: barcha sinflarda haftaning birinchi kuni, birinchi soati, birinchi motivatsion daqiqalari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ayni ta'lim oluvchilarga murojaati bilan boshlanishining o'zida ham hikmat mujassam. Videolavha ta'sirida bir tomondan Vatanning bir bo'lagi ekani ni his etish barobarida ham faxr, ham vatanparvarlik tuyg'usi shakllansa, ikkinchi tomondan kelajak uchun muhim sanalgan mas'uliyatni ikki karra his eta

oladi! Qolaversa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, oldinda turgan bir haftalik ilm o'rganish yuklamasini bajarishda ruhiy dalda bo'lsa ham ajab emas.

Fikrimcha, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida shakllanadigan dastlabki samimiy suhbat dars rejasini izchillik bilan amalga oshirishni ta'minlaydi. Senariyda videorolikdan so'ng berilgan savollarni bir-biri bilan qiyoslaylikda:

1–4-sinfga: – Siz dori-darmonni nima uchun ichasiz?

5–8-sinfga: – Bilim bo'lmasa, inson qanday holatlarga tushishi mumkin deb o'ylaysizlar?

9–11-sinfga: – Nega men o'qishim kerak? Yoki bilim menga nima beradi?

Agar sinf rahbari novator bo'lsa, sinfxona muhiti va ruhiyatidan kelib chiqib yoshga xos bo'lgan bundanda qiziqarli savol-javobga asoslangan metodlardan unumli foydalanishi mumkin. Muhimi, o'quvchi diqqatini dars oxirigacha nazoratda ushlab turuvchi darsga jalb etish ta'limiy va tarbiyaviy usullarni o'rinli qo'llash lozim.

9-sinf bo'lgan qorako'zlarim hali Prezidentimiz so'zlari ta'siridan chiqay olmay turgan vaqtda o'rtaga tashlangan bu savollar biroq shoshirib qo'ydi chog'i, sinfni bir muddat sukut chulg'ab oldi. Asta-asta boshlangan javoblar izi tezlashdi, birpasda davra qizg'in tus oldi. Quvonarli jihati, **har bir javob zahirida nafaqat shaxsiy hayoti, yurt kelajagi uchun maqsad, burch va shu yo'ldagi katta odim bor!**

Keling, "Kelajak soati"ning 4-mavzusi – "Hosil bayrami" darsi misolida fikrimizni davom ettirsak.

"Hosil bayrami" mavzusi doirasida 1–4-sinflar **"Yetti xazina"**; 5–8-sinflar **"To'rt unsur"**; 9–11-sinflar esa **"Oziq-ovqat xavfsizligi"** haqida hayotiy qarashlarni mujassamlashtirgan bilimlar taqdimoti alohida ahamiyatga molik. O'quvchilarimga ushbu darsni o'tguncha, "ozgina" burilish yasadim. Balki siz buni yoqlamassiz?! Ammo o'zim uchun ham qiziqarli bo'lgan ma'lumotlarni bolalarimga ilinmasam bo'lmasdi. Qanday "burilish" deysizmi? 9-sinf o'quvchilarimga boshlang'ich sinfga tavsiya etilgan "Yetti xazina" va 5–8-sinflar uchun berilgan "To'rt unsur"ni tanishtirgim keldi! Va ularning o'rganishi uchun taqdim etilgan bilimlarga sizdirib berishga harakat qildim. O'ylaymanki, **tabiat va inson o'rtasida uyg'unlikni tushuntirish, o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiat ne'matlari va inson mehnati mahsullarining qadriga yetish, ulardan oqilona foydalanish hissini o'stirish, o'zaro hamkorlik, jamoaviy ishda mas'uliyat, ijobiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish** kabi belgilangan dars maqsadi, albatta, natija beradi.

Taassurotlarimni davom ettirsam hali uzoq so'zlashimga to'g'ri keladi, shekilli. Yaxshisi, "Kelajak soati" darslarini "Hayot saboqlari" deb ham atagim kelishini aytayki, ushbu atama jamiki ta'rifimni o'z ichiga qamrab olganini aks ettirsin. Olloh nasib etsa, o'quvchilarni katta hayot ostonasidan hatlab, kejalak sari odimlashga o'rgatishni maqsad qilgan tizimli o'quv dasturi hech qancha o'tmay, o'z mevasini berajak!

Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz shahridagi
23-maktab o'qituvchisi

Mutasaddilar nima deydi?

Andijon viloyati hokimligi: “Ma’rifat”ni qayerdan topsak bo’ladi?

“Ma’rifat” gazetasining shu yil 2-iyuldagi 26-sonida “Andijonga grossmeyster kerak emasmi?” nomli maqola chop etilgan edi. 10-iyul kuni tahririyat tomonidan maqolada ko’tarilgan muammolarga yechim izlab Andijon viloyati hokimi Shuhratbek Abdurahmonov nomiga xat jo’natildi. Biroz vaqt o’tgach Andijon viloyati hokimi yordamchisi tahririyatga qo’ng’iroq qilib, “Ma’rifat” gazetasini qayerdan topish mumkinligini so’radi. Uning gap-so’zidan butun boshli viloyat hokimligi (kutubxonasi ham) aqalli bir nusxa “Ma’rifat” olmasligi ma’lum bo’ldi. Biz esa “Ma’rifat” gazetasi viloyatdagi ta’lim muassasalari kutubxonasiga borishi kerakligi, hatto bu O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida belgilab qo’yilganligini aytdik.

Oradan vaqt o’tsa-da, qonunchilikda belgilangan muddatda viloyat hokimligidan tahririyat xatiga nisbatan belgilangan tartibda javob berilmadi. Shundan so’ng viloyat hokimligi Murojaatlar bo’limining (74) 225-80-00 raqamli telefoniga qo’ng’iroq qildik. “Assalomu alaykum, Andijon viloyati hokimligining murojaatlar markaziga xush kelibsiz! Ish sifatini oshirish uchun telefon so’zlari yozib boriladi. Operator bilan bog’lanish uchun birni (1) bosing!” degan (uch tilda jaranglagan) so’zlarni sabr bilan eshitdik. Ammo “birni” bosgan zahoti aloqa uzilib qolaverdi.

Bu so’zlarni o’n martalab erinmay uch tilda eshitsak-da, ahvol o’zgarmadi. Shu tobda turli muammolarga najot izlab, uzoq va yaqin tumanlardan qo’ng’iroq qilayotgan viloyat aholisi ahvoli ko’z oldimizga keldi. Ehtimol ular ham umid bilan tinmay hokimlikning Murojaatlar bo’limi raqamini terib charchagandir... Bu urinish zoye ketgach Andijon shahar telefon bog’lanmasi boshlig’i Elmurod Madaminov bilan bog’lanib, vaziyatni tushintirdik.

Oradan ko’p vaqt o’tmay, Otabek Ne’matjonov nomli shaxs “Men Andijon viloyati hokimligi Murojaatlar bo’limi mutaxassisi bo’laman”, deb qo’ng’iroq

qildi. Unga murojaatlar bo’limi raqamiga qilgan qo’ng’iroqlarimiz zoye ketganini, viloyat hokimligini aholi bilan bog’lashga xizmat qiluvchi telefon raqamida muammo mavjudligi achinarli holat ekanini, bunday e’tiborsizlik, mas’uliyatsizlik oqibatida xalqning hukumatga bo’lgan ishonchi barbod bo’lishini aytganimizda aholi murojaatlari bilan ishlaydigan mas’ul xodimning javobi quyidagicha bo’ldi:

– Uzr, aka, topshiriq bilan dalaga ketgan edik. Bu (74) 225-80-00 raqamli telefon, mobil telefonimga qayta ulanish (pereadresatsiya) qilingan edi. Afsus, telefonim quvvati tugab qolibdi. Endi qaytarilmaydi.

Viloyat hokimligida ahvol shu bo’lsa, tuman va shahar hokimliklaridagi vaziyat kishini yanada tashvishga solar ekan.

Shundan so’ng viloyat hokimi o’rinbosari Komiljon Komilov kotibiyatidan Ahror, Fazliddin, Oyatulla deya o’zini tanishtirgan mas’ul xodimlar qo’ng’iroq qilishdi. Ular ham asosan “Ma’rifat” gazetasini qayerdan topishni so’rab,

masalaga yaqindan yordam berishlarini aytishdi, lekin hamon rasmiy javob yo’q...

Viloyat hokimligi devonxona mas’ul xodimi Alisher Xalilovga ham ko’p marotaba qo’ng’iroq qilib, gaplashdik. Vaqt o’tyapti, ammo muddatidan o’tib ketsa-da, bir enlik bo’lsa-da murojaat xatimizga javob kelmadi. 25-avgust kuni o’zini viloyat sport boshqarmasi yuristidan deb tanishtirgan Nodirbek Naumanov qo’ng’iroq qildi, u ham gapni boshqalar kabi “Ma’rifat” gazetasini qayerdan topsak bo’ladi?”dan boshladi. Unga ham avvalgidek tushuntirdik. Hatto gazetaning 2025-yil 2-iyul kuni 26-sonining elektron nusxasini tashlab ham berdik. Ertasiga javob xati tayyor bo’lib qoldimi, degan mazmunda qo’ng’iroq qilsak, u kishi “bizga kelganiga uch kun bo’ldi. Muddatimiz hali bor...” deganicha “qonuniy javob” qaytardi...

Viloyat hokimligiga qayta-qayta qilingan murojaatlarimizdan so’ng, va nihoyat, ikki oy-u o’n besh kunda – 25-sentabr kuni Andijon viloyati



ti hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha o’rinbosari Komiljon Komilov imzosi bilan tahririyatga javob xati keldi.

Javob xatini oldik. Biroq natija biz kutgandek emas. Yana takrorlaymiz, “Andijonga grossmeyster kerak emasmi?” nomli tanqidiy, tahliliy maqola shunchaki ermakka yozilmagan. Unda ko’tarilgan masala millatimiz ertangi kuniga, uning jahon uzra namoyon bo’lishiga borib taqaladi. Yana baralla aytamiz: “Andijonga grossmeyster kerak emasmi?”

Jamiyatda odamlar uchun erkin fikr bildirish va axborot olish imkoniyati kengayib borayotgan bo’lsa-da, negadir ko’pchilik ommaviy axborot vositalaridan o’zini olib qochishga harakat qiladi. Davlat idoralarining ayrim xodimlari tanqidni rivojlanish omili emas, bosim deb tushunishmoqda. Xo’sh, nega? Andijon viloyati hokimligi bilan bog’liq bunday holat ham birinchi marta ro’y berayotgani yo’q. Masalan, 2024-yil 19-noyabrda 134-raqamli, 2022-yil 4-oktabrdagi 115-raqamli “Ma’rifat” gazetasi tahririyati tomonidan yuborilgan xatlarga ham javob berilmagan. Bundan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Bu hududda ma’naviyat, ma’rifat, inson omiliga bo’lgan e’tibor qay darajada ekanligini ko’rsatmaydimi? Matbuot millatning yuzi, oynasi ekanligini qachon anglab etamiz? Mas’ul idoralarda faoliyat yuritayotgan ba’zi kimsalar o’z kasbiy mas’uliyatiga rioya etmaslik bilan Prezident Shavkat Miziyoeyevning “Ommaviy axborot vositalari aholining talab va ehtiyojlarini hokimiyat idoralariga yetkazishning muhim ta’sirchan vositasiga, xalqning eng yaqin ko’makchisi va hamdardiga, demokratiya ko’zgusiga aylanishi zarur” degan so’zlariga zid ravishda ish olib borayotganini tushunib yetarmikan?

Ma’murjon QIYOMOV,
O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

21-oktabr – O’zbek tili bayrami kuni

“Ona tilim, sen ruhimning qanoti...”

Ma’lumotlarga ko’ra, bugungi kunda dunyo bo’yicha 7 mingdan ortiq til muomalada bo’lsa-da, insoniyatning 90 foizi atigi 70 tilda muloqot qiladi. Shunga qaramay, o’zbek tili bugun 50 milliondan ortiq insonning ona tili sifatida yashamoqda. Demak, yer yuzidagi har 150 kishidan biri o’zbek tilida so’zlashadi. Bu esa tilimizning nafaqat milliy, balki jahon miqyosidagi o’rni va nufuzidan dalolat beradi.

Bu raqamlarni bejiz keltirmadik. Chunki ona tilimizning shu kungacha yetib kelishi, rivojlanishi, boy tarix va katta nufuzga erishishida qadimgi turkiy yodgorliklar, xususan, Mahmud Qoshg’ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar beqiyos hissa qo’shganlar.

Mahmud Qoshg’ariyning “Devoni lug’atit turk” asari ilk ko’p tilli turkiy lug’at hisoblanadi. Alisher Navoiy o’z asarlarida turkiy tilning haqiqiy latofati, boyligi, boshqa tillardan kam emasligini isbotlab berdi. Masalan, Shekspir asarlarida salkam 20 ming, Servantes 18 mingga yaqin, Alisher Navoiy esa 26 ming 35 ta betakror so’z ishlatgan.

O’zbek tilining asrab-avaylanishi va rivojlanishida jadid bobolarimizning ham hissasi katta. Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning til haqida shunday fikrlari bor: “Inson qalbining eng nozik torlarini chertadigan, uni hay-

ajonga soladigan, ko’zyoshlarini oqizadigan, xursand qiladigan, zavq-shavq bag’ishlaydigan, ongiga, tafakkuriga, his-tuyg’ulariga ta’sir ko’rsatadigan, unga kuch-quvvat beradigan vosita – bu ona tildir”.

So’nggi yillarda o’zbek tili maqomini dunyo miqyosida yuksaltirish bo’yicha amaliy qadamlar qo’yildi. 2019-yil 21-oktabrda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev “O’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmonni imzoladi. Xususan, 21-oktabr yurtimizda “O’zbek tili bayrami kuni” deb belgilandi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Til xalqni xalq qilgan buyuk qadriyatdir. Ona tili Vatanning mazmundor ovozidir”.

Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamentining tashkil etilishi mamlakatimiz til siyosatida muhim voqelik bo’ldi. Shuningdek, Atamalar komissiyasi ham tilimiz sofligini asrash va boyitish yo’lida faoliyat yuritmoqda, yangi atamalarni ilmiy asosda tartibga solish orqali o’zining munosib hissasini qo’shmoqda.

BMT Bosh Assambleyasining 2020-yildagi 75-sessiyasida Prezidentimiz ilk bor to’liq o’zbek tilida nutq so’zlad. Bu tarixiy voqea tilimiz nufuzining yuksalayotganidan dalolat berdi va butun xalqimizda faxr va g’urur tuyg’usini uyg’otdi.

Bundan tashqari, ba’zi xalqaro tashkilotlarning rasmiy hujjatlarida o’zbekcha atamalar asl shaklda saqlanmoqda. Masalan, UNESCOning moddiy va nomoddiy madaniy meroslar ro’yxatiga o’zbek tilida: *kurash, do’ppi, chopon, palov, lazgi, askiya, shashmaqom, atlas, adras* va boshqa so’zlar kiritilgan. Bundan tashqari “Mahalla” termini BMT Bosh Assambleyasining rasmiy hujjatlarida transliteratsiya (bir tildagi so’zni boshqa til alifbosiga harfma-harf ko’chirish) qilingan

holda o’zbek tilidagi shaklida qo’llaniladi. Bu esa atamaning o’ziga xos ijtimoiy-ma’naviy g’oya sifatida xalqaro darajada e’tirof etilganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda o’zbek tili turkiy tillar orasida turk va ozarboyjon tillaridan keyin so’zlashuvchilar soni bo’yicha uchinchi o’rinda turadi. Dunyoda 70 dan ortiq universitetda o’zbek tili va adabiyoti o’qitiladi. Bu esa, o’z navbatida, tilimizga nisbatan yanada faxr tuyg’usini oshiradi.

Prezidentimizning bayram arafasida – 2025-yil 20-oktabrda qabul qilingan “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori, tilimiz nufuzini yuksaltirish yo’lida qo’yilgan yana bir muhim qadam bo’ldi. Ushbu qaror mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida davlat tili imkoniyatlaridan to’liq va samarali foydalanishga, ta’lim tizimida o’zbek tilini o’qitish jarayonini takomillashtirishga, uning sofligini saqlash va boyitib borishga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga o’zbek tilini faol tatbiq etish, hamda uning xalqaro miqyosdagi o’rni va nufuzini kengaytirish yo’lidagi amaliy ishlarni yanada jadallashtirishga zamin yaratadi.

Til – millatning ongi, tarixi, madaniyati, o’zligini ifodalaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Kimda-kim o’zbek tilining bor latofatini, jozibasini va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo’lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o’lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hoziflarimizning sehrli qo’shiqlariga quloq tutsin”.

Xolboy IBRAIMOV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, akademik



Yangi nashr

LIDER BO‘LMOQCHIMISIZ?..



Maktab yoshidan yozgi ta'tilda kitob o'qiganmiz. Odatga ko'ra, bu yilgi yozgi ta'tilim birinchi kunini siyosatshunoslik fanlari doktori, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov qalamiga mansub "Liderlar kitobi"ning qayta ishlangan o'ninchi(!) nashri mutolaasidan boshladim.

Nomini o'qiboq, o'ylab qoldim: oltmish bilan yetmishning orasidagi kishi liderlikka ehtiyoj sezarmikan? Lekin bir mahal "lider" tushunchasiga berilgan ta'rifni o'qib, ko'nglim taskin topdi. Lider, jumladan, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, o'zgalarga yordam qo'lini cho'zadigan inson bo'lar ekan. Yashirmayman, ko'nglimdan: "Demak, bu toifaga kamina ham kirar ekanman", degan fikr o'tdi. Bugungi kunda bor kuch-quvvatimni ayamasdan, ilm-tajribamni ishga solib, Toshkent amaliy fanlar universiteti talabalari ma'rifatini yuksaltirishga hissa qo'shayotganimdan ich-ichimda ajib bir mamnuniyat sezdim.

Bugun komil insonni tarbiyalash butun boshli jamiyatimiz zimmasidagi bosh vazifa hisoblanadi. Bu kitob shu maqsadga xizmat qiladi. Unda aynan komillik uchun dadil qadam tashlash yo'li ko'rsatiladi. Kitobxon ko'p-ko'p yangi g'oyalar bilan tanishadi. Nashr kishini mardlik, jasurlik, mehnatsevarlik, ijodkorlik va boshqa talay insoniy fazilatlarini egallashga undaydi. Ilm-fan insonni yetuklikka chorlashi, u shaxs va jamiyat taraqqiyotining yagona najot yo'li, har qanday nochorlik va kambag'allikdan qutulish, kelajakka umid qilish uchun qudratli kuch beradigan mo'jiza ekani qalamga olinadi. Otabek Hasanov ham ana shunday ulug' maqsad, ya'ni jamiyatimiz ravnaqiga munosib hissa qo'sha oladigan liderlar safini ko'paytirishni o'z oldiga vazifa qilib olganlar toifasidan.

Muallif "So'zboshi"da bo'lajak liderlarga xitob qilib, bu kitobni o'qiyotganlarini "kelajakka befarq bo'lmaganlar" deb biladi, Telegramdagi "Liderlar" kanalini uning o'zi ochgan, uning admini ham – o'zi. Kitobning yozilishida bevosita padari buzruvori, texnika fanlari doktori, professor Abdurashid Hasanov rag'bat berib, dalda bo'lgan bo'lsa, uni shakllantirishda ana shu kanal a'zolarining fikr-mulohaza, taklif-ishtaklari ham muhim o'rin tutgan. Otasining "Yoshlarga maslahat" sahifasida keltirilgan mana bu o'gitini, faqat o'g'ilgagina aytilgan nasihat deb bo'lmaydi: "O'g'lim, mansab va boylik – o'tkinchi. Uni sendan tortib olishlari mumkin. Lekin bilimingni hech kim hech qachon tortib ololmaydi – u doimo sen bilan birga bo'ladi va seni muvaffaqiyatlarga undaydi. Shuni yodingda tut!"

Bu fikrni o'qigan har qanday o'quvchi ko'z o'ngida ota-onasi tarbiyasi, bergan o'gitlari gavdalanishi aniq. Chunki farzandning kim va qanday inson bo'lib voyaga yetishi, avvalo, oila muhitiga borib taqaladi. O'zbekistonimiz dunyoda ne-ne buyuk insonlar Vatani sifatida tan olinadi. Eh-he, ulardan bizga qanchalar buyuk ma'naviy meros qolgan! Ular aql-tafakkuri, asosan, kitoblar orqali bizgacha yetib kelgan. Inson ma'nili yashashi uchun o'zining umrlik tajribasi unga hech qachon yetarli bo'lmaydi. Kitob orqali esa biz ilgari zamonlarda o'tgan ne-ne buyuk shaxslar tajribalarini o'zimizniki qilib ola olamiz. "Liderlar kitobi"da xuddi ana shu pozitsiyada qat'iy turilgan. Unda yurtimizdan chiqqan buyuk insonlar tafakkur durdonalari va xorijlik mashhur shaxslarning hikmatga boy sara fikrlaridan namunalar keltirilgan. Zamini-mizdan yetishib chiqqan va xorijlik buyuk zotlar aqliy tafakkuri mahsuli bo'lgan boy milliy va umuminsoniy ma'naviy merosni o'rganish, asrash va zamon talablaridan kelib chiqqan holda targ'ib etishning ahamiyati esa oshgandan-oshib borayotir. Bir kitob orqali bir necha kitobni o'qiganday bo'lasiz.

Bu dono fikrlar zimdan sizni tarbiyalayotganini ham his etasiz. Asarda kitobga abadiylik ramzi sifatida qaralayotganini ham sezasiz. Chunki odamlar o'tib ketaveradi, lekin yozilgan kitoblar abadiy qoladi.

Kitobning boshqa nashrlardan ko'p farqli tomonlari bor. Avvalo, mundarijasi an'anaviy emas. Tamoman o'ziga xos. Ushbu kitob haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari, Yoshlar ishlari agentligi raisi, senator Alisher Sa'dullayevning 3 hamda Innovation rivojlanish vaziri o'rinbosari Olimjon To'ychiyevning 2 sahifalik fikrlaridan so'ng muallifning har biri 1 sahifadagina joyni egallagan "So'zboshi"si, "Yoshlarga maslahat"i va oxirida "Muallifdan so'ngso'z"i berilgan. Asosiy qism 8 bo'limga bo'linadi. Ularning nomlanishiyoq o'quvchini qiziqtiradi, o'qishga undaydi: "Hamma o'qishi shart", "7 savolga 7 javob", "Suhbatlar", "Otam o'gitlari", "Kun hikmati"dan eng saralari, "Ibratli hikoyalar", "Buyuk insonlar hayotidan" va "Sizda qanday fikr bor?".


1-bo'limdan 15 maqola joy olgan. Hammasi dolzarb, qiziqarli masalalar tahliliga bag'ishlangan. 1-maqola tugagach, "Qaydlar uchun" yozuvidan keyin: "Albatta, o'zingiz uchun qaydlar kiritib boring. Sababi, ma'lum muddat o'tib yozganlaringizni o'qiganingizda siz barcha ma'lumotlarni yodga olasiz", deb yoziladi. Keyin: "Men nimani tushundim", "Menga yoqdi", "Xulosa" degan qaydlar berilib, har biri uchun uch qatoridan bo'sh joy qoldiriladi. Bu har bir maqola so'ngida yana takrorlanadi.

Bu – yangicha qarash. O'zi ko'plar kitobga yozishni "madaniyatsizlik" deb biladi. Shunga qaramay, aksar olimlar qo'lidagi kitobni yozib-chizib o'qiydi. Bu kerakli joyga zarur qaydni kiritish imkonini beradida. "Liderlar kitobi" muallifi o'quvchiga nashrning o'zida ixcham-ixcham konspekt qilib borish uchun sharoit yaratib bergan. Shunda vaqt o'tib, kitobni qayta varaqlaganingizda bu qaydlaringiz o'zingizga juda-juda asqatadi, albatta.

2-bo'limda "Liderlar" kanali admini Otabek Hasanovga kanal a'zolari, muxlislari va qiziquvchi yoshlar tomonidan yuborilgan savollarga javob tariqasida tayyorlangan videolavha-intervyu ko'rinishida tashkil etilgan suhbatlarning matni havola etilgan. Har biri so'ngida esa "Qaydlar uchun" berilgan. Faqat endi savollar birinchi bo'limnikidan farq qiladi: "Qaysi javob ko'proq sizga ma'qul keldi?", "Sizga ma'qul kelgan faktlar", "Xulosa".

3-bo'lim suhbatlardan iborat. Ular muallifning ilmiy va ilmiy-ommabop jurnallar, vaqtli matbuot, internet nashrlaridagi chiqishlari asosida tayyorlangan. Aksaran kadrlar va ularni tayyorlash, liderlik mahoratini egallash masalalari muhokama qilingan. Bo'lim oxirida qaydlar berilmagan.

"Otam o'gitlari" deb nomlangan 4-bo'limni o'qisangiz, bu pand-nasihatlar sizga foydasi tegishidan umidvorlik sezasiz. Ular bilan tanishib, bevosita otamni esladim. Dadam umrining so'nggi damlarigacha rahbar bo'lib ishladi. Har qancha ishlari og'ir, vaqti oz bo'lsa ham, tumanimiz markazidagi kitob do'konidan biz – farzandlariga yangi chiqqan adabiyotlardan keltirib turardi. Nodir ukam bilan ikkalamiz bir vaqtda ilmiy ish boshladik. Shunda dadam bizga qayta-qayta bir gapni uqtirar edi: "Jon – garov, joma(to'n) – garov. Elga ovoza qilib, dissertatsiya boshladingizlarmi, endi



har qanday qiyinchilik bo'lsa ham, yengib, ishini oxiriga yetkazinglar. Orqalaringizda men borman. El ichida olim farzandlarning otasi sifatida sizlar bilan faxrlanishim kerak!". Bergan tarbiyalari besamar ketmadi. To'g'ri, bugun biz bilan g'ururlanadigan otamiz oramizda yo'q. Lekin u da'vat etgan ilm yo'lini bugun farzandlarimiz ham davom ettirayotganidan mamnunmiz.

Muallif padari buzruvoriidan eshitgan qimmatli o'gitlarni keltirish bilangina cheklanmaydi. Bo'lim so'ngida: "O'z otangizdan eshitgan o'gitlaringiz", "Yuqoridagi o'gitlardan qaysi biri sizga yaqinroq?", "Kelajakda qaysi o'gитdan farzandingiz tarbiyasida foydalanasiz?" degan qaydlarni keltirib, har biri uchun uch qator bo'sh joy qoldiradi.

5-bo'limdan "Liderlar" kanalining "Kun hikmatlari" sahifasi orqali har kuni ertalab havola etilgan tafakkur durdonalari joy olgan. Unda Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur hikmatlari, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev fikrlari, chet ellik ko'p buyuk zotlarning qimmatli so'zlari keltirilgan. Ularning bari kishini hayotni sevishga, vaqtini tejashga, umrni zoye o'tkazmaslikka da'vat etadi.

6-bo'limda "Liderlar" kanalida e'lon qilingan ibratli hikoyalar berilgan. Undagi masal, rivoyat, hikoyalar gazeta, jurnal, kitoblar va internet nashrlaridan olingan. Har biri o'ziga xos g'oyani targ'ib etadi. Masalan, "Ikki o'tinchi" hikoyatini olaylik. Biri tinmay, dam olmay ishlaydi, ikkinchisi orora dam olib mehnat qiladi. Ammo u hordiq chiqarish payti boltasini qayrab, o'tkirlashtiradi. Evaziga kun oxirida sherigidan ko'ra ko'proq o'tin yiqqani ma'lum bo'ladi. Oxirida o'quvchi, dam olishsiz ishlash har doim ham samara beravermas ekan, degan xulosaga keladi. Ilmiy ifoda bilan aytilsa, intensiv mehnatning ekstensiv mehnatdan ustunligi sodda, lekin hayotiy qilib tushuntiriladi.

6-bo'limdagi ibratli hikoyalar orasida "E'lon: "Ota-ona sotiladi..." sarlavhalisi juda ta'sirli. Yaponiya poytaxti Tokioda chiqadigan gazetalaridan birida: "Ota-ona sotiladi. Ota – 68, ona – 66 yoshda. Narxi: 900 yen", degan e'lon bosiladi. Yaqindagina ota-onasidan judo bo'lgan yosh oila a'zolari uni o'qib, shu ikki qariyani sotib olib, ularga mehr-muhabbat ko'rsatishga ahd qilishadi. Aytilgan manzilga yetib kelib, ajablani-shadi. Hashamatli, yorqin ranglarda chiroyli qilib bo'yalgan hovli. Chol ularni xursand kutib olib, rafiqasini chaqiradi. Keyin shunday deydi: "Ko'rib turganingizdek, biz moddiy jihatdan muhtoj odamlar emasmiz. Lekin bizning merosxo'rimiz – farzandimiz

yo'q. Shuning uchun e'lon orqali o'zimizga munosib nomzod topishga qaror qildik. Biz bu e'longa faqat mehr va odamiylik hissi yuqori kimsalargina javob qilishini bilardik! Ammo bunday insonlar topilishiga shubhada edik. Bu ishingiz sizlar uchun sharaftir!".

Bu jamiyatimizda mehr-oqibatli insonlar safini ko'paytirish, shu muqaddas tuyg'uni ko'pchilik ongiga singdirishga xizmat qilishi tayin. Bo'limning har bir hikoyasi so'ngida muallif: "Sizning xulosangiz", deb, uch qator bo'sh joy qoldiradi. "Sizni qanday yodga olishlarini xohlaysiz?" sarlavhali matn so'ngida "Sizning xulosangiz" degan anketa berilmagan. Unda muallif matn ichidagi "O'zingizdan so'ng nimaning meros qilib qoldirasiz?", "Sizni qanday yodga olishlarini xohlaysiz?", "Siz haqingizda yaxshi gaplarni aytishadimi?", "Sizni sevgi va hurmat bilan eslab qolishadimi?", "Sog'inadilarmi?" kabi savollar bilan cheklangan. Bu savollar esa har bir kishini, bir lahzaga bo'lsin, o'zi haqida o'ylashga majbur qiladi.

7-bo'limda "Liderlar" kanalida e'lon qilingan mashhur insonlarning hayotiy saboqlari keltirilgan. Ba'zilar shu kanal a'zolari tomonidan ingliz tilidan tarjima qilingan.

8-bo'lim – "Liderlar" kanali a'zolarining shu kanal haqidagi fikrlari, takliflari, munosabatlari, ularning hayotiga, faoliyatiga ta'sir qilgan jihatlar haqida.

Xullas, kitobni o'qib angladimki, muallif hayotda har bir insonni lider bo'lib yashashga undaydi. Har kim undan o'ziga tegishli, foydali bilim oladi. Lekin gap endi uni ishlatishda qolgan. Chunki muallif hayoti davomida ularni amaliyotda sinab ko'rishga da'vat etadi. Chunki u: "Ishlatilmagan bilim – keraksiz yuk", degan hikmatli so'zni eslatadi. Yana olingan bilim va hosil qilingan ko'nikmalar hech qachon keraksiz yukka aylanmasligiga ishonch bildiradi ham. Bilim yetishmagan joyda izlanish va o'rganishga, har doim o'quvchi va izlanuvchi bo'lib qolishga undaydi. Keyingi nashrlarda liderlar bilan yana uchrashish istagini bildirib, dars tayyorlash uchun parta, stol, stulsiz o'qib, yozayotgan bola suvratini beradi. Bundan ko'zlangan maqsad esa – aniq: o'qish va bilim olishga xohish bo'lsa, bas!

Kitob mutolaasini tugatganingizdan keyin ko'ngilda yana bir narsa tiniqlashadi. Muallif muxbir savollariga javob bera turib, "lider" so'ziga mana bunday ta'rif beradi: "Aslida, bizning ota-bobolarimiz, Sharq mutafakkirlari yozib qoldirgan ma'lumotlar G'arb olimlari tomonidan chiroyli ko'rinishda o'zimizga taqdim qilinyapti. Biz esa: "Voy, zo'r ma'lumot ekan!" deb, hayratda qolmoqdamiz. Lider kimligiga Forobiy bobomiz X asrdayoq ta'rif berib qo'yg'an". Axir, Forobiy bobomiz "Fozil odamlar shahri" asarida davlatni fozil insonlar boshqarishi joizligini va ular nafsinu tiya olishi, yolg'on gapirmasligi, o'zini doimo sog'lom saqlashi, ravon nutq so'zlay olishi, o'zgalarni ishonтира bilishi, maqsadni to'g'ri qo'yishi va hokazo fazilatlariga ega bo'lishini ta'kidlagan. Yoki Sohibqiron Amir Temur "Temur tuzuklari" kitobida davlatni boshqarish usullari haqida so'zlab: "Ijtimoiy adolatni o'rnat, ijtimoiy adolat bor joyda senga hurmat bo'ladi", degan. Bugun jamiyat – sifatli va samarali ma'naviy targ'ibotga muhtoj. Shu targ'ibot ishlarida "Liderlar kitobi" juda qo'l keladi. U, shuningdek, hayotda lider yoshlarni topish va tarbiyalashni kuchaytirishga yordam beradi. Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan avlodni tarbiyalash esa jamiyatimizning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Ziyoda G'AFFOROVA,
Toshkent amaliy fanlar
universiteti dotsenti,
"Shuhrat" medali sohibasi

Xalqaro sharh

KO'HNA JAROHAT

Keyingi haftalarda dunyoda shunangangi ajabtovur voqealar sodir bo'ldiki, ular haqida bir maqola ichida batafsil hikoya qilib berishning sira imkoni yo'q. Shunday bo'lsa ham, biz ular bilan aziz gazetxonlarni atroflicha tanishtirib borishga harakat qilamiz. Bunda, shubhasiz, birinchi galda Yaqin Sharqdagi siyosiy iqlimni sovutib kelayotgan arab-isroil ziddiyatlarining yumshatilishi alohida e'tiborga molik. Chunki ushbu mojarolar o'tgan asrning 50-yillaridan buyon davom etib kelayotgan esa-da, AQSH prezidenti Donald Tramp iborasi bilan aytganda, "3000 yillik tarixga ega". Ma'lumki, asrlar davomida yahudiy xalqi zulm va quvg'in ostida umrguzaronlik qilgan. Ammo ular dunyoning qaysi chekkasida bo'lmasin o'zlarining mehnatsevar va tirishqoqligi tufayli zamon tegirmonidan nafaqat butun chiqqan, balki qop-qop boyliklarni ortmoqlab chiqa bilgan xalq. Eng muhimi, ular ana shu zalvorli davr mobaynida o'zining tilini, dinini hamda urf-odatlarini e'zozlab saqlab qola olgan. Bu tomondan ularga qoyil qolmasdan hech bir iloj yo'q. Tan olib aytish kerakki, yahudiylarning o'rnida boshqa biror elat bo'lganida, allaqachon boshqa xalqlar bilan qorishib, qovushib, singishib yo'qolib ketgan bo'lardi. Yahudiylar boshiga tushgan eng og'ir sinov o'tgan asr o'rtalarida gitlerchilar Germaniyasida sodir bo'ldi. U yerda antisemitizm davlat siyosatiga aylanib, eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Olti milliondan ortiq yahudiy millatiga mansub xalq qirg'in qilindi. Fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alaba natijasi o'laroq, Yaqin Sharqda, qadimiy Falastin tuprog'ida, ularga vatan qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Jahon hamjamiyati 1949-yilda mustaqil Isroil davlati tashkil bo'lganini tan oldi. Shubhasiz, yangi davlat tug'ilishi juda og'ir, og'riqli kechdi. Bunda eng avvalo ming-ming yillardan buyon shu tuproqda istiqomat qilib kelayotgan mahalliy musulmon aholi qattiq jabr ko'rdi. O'z vataniga sig'magan falastinliklar atrofdagi qo'shni davlatlarga muhojir bo'lib chiqib ketishga mahkum etildi. Bunda faqat bir tomonni ayblab bo'lmaydi. Vatanning ishg'ol etilishida ochko'z arab zamindorlari ham o'z hissalarini qo'shishdi. Ular Falastin xalqiga tegishli bo'lgan yerlarni badavlat yahudiylarga katta pul evaziga sotib yubordilar. Ular bu qilmishlarini sotilgan yerlar suvsiz, unumsiz tuproq ekani bilan izohladilar. Ammo bilimdon va tirishqoq isroilliklar bu saholarni ko'p o'tmay gullab yashnagan vohalarga aylantirib obod shaharlar barpo etishdi. G'arb mamlakatlari yordamida oyoqqa turib olgan Isroil endi mintaqada kuchli zamonaviy industrial davlatga aylandi. Bir necha bor alangalangan arab-isroil urushlarida har gal ularning qo'li baland kelib, arablar yangi-yangi hududlarni boy bera bordi. Arab mamlakatlari ortiq talofatlarning oldini olish maqsadida sulh shartnomasini imzolashga majbur bo'ldilar. Uzoq davom etgan zulm va adolatsizliklar arab dunyosida radikal jangari guruhlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Jahondagi antisemit kayfiyatidagi kuchlar ularni qo'llab-quvvatlab turishdi. Qasos oloviga Isroilning aksilarab siyosati moy quyib turdi. Buning sababi shundaki, Isroil demokratik davlat bo'lib, rahbarlar hami-sha xalq kayfiyatidan kelib chiqib siyosat

yurg'izadi. Isroilda esa barcha jamiyatlarda bo'lganidek, radikal millatchi fuqarolar ko'pchilikni tashkil etadi. Ular hami-sha arablar va umuman, musulmonlarga nisbatan murosasiz, jangari kayfiyatda bo'lganlar. Faqat keyingi davrga kelib, Isroil jahon hamjamiyatida yakkalana boshlagach, biroq yumshab, murosayi madora yo'lga kirishga majbur bo'lmoqdalar. Tarixdan ma'lumki, o'tgan asrda butun g'arb dunyosi Isroil davlatining ittifoqchisi bo'lib, arablar ustidan qozonilgan g'alabaning garovi edi. Biroq bugungi kunlarda Isroil uchun AQSHdan bo'lak yaqin ittifoqchi qolmadi hisob. Chunki bu davlat yurg'izayotgan agressiv bosqinchilik siyosati uning yaqin hamkorlarining ham toqatini toq qildi. Shu bois bo'lsa kerak, yaqinda Falastin davlatini tuzish masalasi muhokama qilinganida, faqat Amerika va Isroil vakillari qarshi ovoz berishdi.

Ma'lumki, AQSH kongressida, va umuman, elitasida kuchli yahudiyparast qatlam mavjud. Ammo prezident Trampning yaqinda bergan bayonotiga ko'ra,

NOBELNING ARMONI

ular ham asta-sekin o'z ta'sirini boy bermoqda. Chunki yahudiylarning o'zi ham Isroil olib borayotgan yakkalanish siyosati oxir-oqibat davlatni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yishi mumkinligiga ishonch hosil qilishmoqda.

AVVAL IQTISOD, KEYIN SIYOSAT

Jahon ayvonida sodir bo'layotgan yana bir muhim voqea G'arb mamlakatlari bilan Xitoy o'rtasida paydo bo'layotgan iqtisodiy ziddiyatlardir. Bu masalada ham tarixga murojaat qilib ko'radigan bo'lsak, kapitalistik ishlab chiqarish usulining zaif qirralari yaqqol namoyon bo'ladi. O'tgan asr oxirlarida g'arb dunyosi bilan kommunistik Xitoy orasida paydo bo'lgan siyosiy ilqlik iqtisodiy mo'jizalar paydo qildi. Dastlab Xitoyning sharqiy sohillarida vujudga kelgan to'rt erkin iqtisodiy zona kapitalistlarni xuddi shira pashshani jalb qilganidek o'ziga torta boshladi. Arzon ishchi kuchiga qiziqib qolgan sarmoyador biznesmenlar zudlik bilan ishlab chiqarishlarini Xitoyga ko'chirishga kirishdilar. Hozir vaziyat shundayki, uddaburon xitoyliklar bu mashhur brendlarni iqtisodiy usul bilan o'zlashtirib olib, mamlakatni dunyo korxonasiga aylantirishdi. Ish shunga borib yetdiki, mashhur firmalarning Xitoydagi filiallari G'arbdagi bosh korxonalarini raqobat yo'li bilan sindirib, o'ziga qaram qilib olmoqda. Masalan, Shvetsiyaning mashhur "VOLVO" firmasi bilan shunday bo'ldi. Hozir Yevropadagi ushbu korxona sinib, Xitoydagi filiali bosh ishlab chiqaruvchiga aylangan. Sababi, Xitoyda ishlab chiqarilgan og'ir yuk tashuvchi mashinalar arzonligi bilan butun dunyo va hatto, Yevropada ham raqobatchilarini siqib chiqarmoqda. Xitoy elektromobillari tejamkorligi va sifati bo'yicha Ilon Maskning "TESLA" sini allaqachon ancha-muncha ortda qoldirib ketdi. Boshqa sohalaridayam Xitoy Amerikaga yetib, uni quvib o'tish arafasida turibdi. Biroq keyingi yillarda davlatning umrbodlik raisi Si Jinpin bir necha

qo'pol xatolarga yo'l qo'ydi. Mamlakatning jadal rivojidan hovliqib qolgan rais Amerika va boshqa g'arb mamlakatlari qarshi siyosat yurg'iza boshladi. Dastlab u o'zini umrbodlik hukmdor deya e'lon qildi va ustoz Den Syaopinning arvochini chiqirardi. Chunki o'rtoq Den Xitoyda rahbarlik lavozimini ikki beshyillik mudat bilan qat'iy cheklab ketgandi. O'rtoq Si esa xuddi Putindek umrbod rais bo'lib qolishga ishq tushib qoldi va buni mamlakat konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritib, mustahkamlab qo'ydi. Buning ustiga, u Xitoy iqtisodiyotini tubdan harbiylashtirishga kirishdi. Yana buning ustiga, eng yomoni: AQSHga qarshi siyosiy va iqtisodiy o'yin boshladi. Shubhasiz, bularning bari Sem amakiga mutlaqo yoqmayapti. Shu bois bo'lsa kerak, prezident Tramp keyingi yillarda Xitoy mahsulotlariga boj miqdorini ko'paytirib, murakkab texnologiyalar eksportini cheklab qo'ydi. Har ikki mamlakat o'rtasida har zamonhar zamonda iqtisodiy mojarolar chiqib turibdi. Ayniqsa, Trampga Xitoyning

BRICS doirasida AQSH dollariga qarshi olib borayotgan xatti-harakatlari mutlaqo yoqmayapti. Bularning bari Xitoy siyosiy hamda iqtisodiy elitasida tashvish uyg'otmoqda. XXR aslida avtoritar boshqaruvdagi davlat bo'lsa-da, davlat rahbarini kommunistik partiya arboblardan iborat oqsoqollar nazorat qilib turadi. Afsuski, o'rtoq Si raislik davrida o'rtoq Stalinga o'xshab, o'z atrofini muxoliflardan batamom tozalay olmadi. Bu esa bir kunmas bir kun u o'rtoq Xrushcheyovning holiga tushib qolishi mumkinligini anglatadi. Xitoyda so'nggi yillarda sodir bo'layotgan demografik muammolar, yalpi ichki daromad foizining kamayishi, iqtisodiyotdagi zo'riqishlar – bularning bari o'rtoq Si Jinpinning obro'siga putur yetkazmoqda. Hozir Xitoy iqtisodiyotidagi vaziyat shundayki, korxonalar ishlab chiqarayotgan sanoat mahsulotlarining 40 foizi ichki bozorda sotiladi. Qolgan 60 foiz tovarlar xorijga eksport qilinadi. Mahsulotlarning asosiy serpul iste'molchilari AQSH va Yevropada ekanligi ham vaziyatning naqadar nozik ekanligini ko'rsatib turibdi.

Ma'lumki, iqtisodiyot bilan hukmfar-molik mutlaqo kelishmaydi. Kelishgan taqdirda ham bir kunmas bir kun vol-yuntarizm ustun kelib, iqtisodiyotni abgor qiladi. Aytaylik, Amerikada Xitoydagidek tezyurar poyezdlar yo'q. Xitoyda partiya va hukumat qarori bilan bu tarmoq rivojlantirilib, 50 ming kilometrga yetkazildi. Undagi o'rtacha harakat tezligi soatiga 350 kilometrga chiqarildi. Bu – Pekindan Shanxaygacha to'rt soatda yetib borish mumkin degani. Amerikada uzoq masofaga uchoqlar yordamida boriladi. Bir samolyot, ikki uchuvchi, ikki styuardessa – jami bo'lib besh kishi 100–200 kishini ikki baravar tezlikda manziliga yetkazib qo'yadi. Tezyurar poyezdlar harakatini ta'minlash uchun esa minglab odamlar, infrastruktura, katta elektr quvvati hamda qimmatbaho uskunalar zarur bo'ladi. Hozir mutaxassislar tomonidan Xitoydagi tezyurar poyezdlar davlat iqtisodiyotiga ortiqcha daxmaza bo'lib, tushovi eshagidan qimmatga tushayotganligi

aytilmoqda. O'zimizda ham "Afrosiyob" poyezdlari bileti narxi aynan shu vajdan qimmatlashtirildi. Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyot katta aql bilan boshqarilmasa, har turli muammolar kelib chiqaveradi.

SAKKIZINCHI URUSH

Umuman, iqtisodiyotga siyosatning aralashuvi hamisha ishkallik keltirib chiqaradi. Masalan, Tramp Xitoy rahbarlariga Rossiyadan neft xarid qilmaslikni taklif qildi. Sababi: Rossiya, mana bir necha yildirki, Ukrainaga qarshi harbiy harakat olib bormoqda. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, urush oqibatida 1,5 million rossiyalik askar safdan chiqarilgan. Bugungi kunda prezident Tramp ushbu harbiy to'qnashuvga chek qo'yishga qattiq bel bog'ladi. U, o'zining aytishicha, yetti urushni to'xtatib, allaqachon Nobel mukofotini olishi kerak edi. Afsuski, Trampga mukofotni olish nasib etmadi. Bu esa nomzod tomonidan "AQSHning qattiq haqoratlanishi" deya qabul qilindi. Agar u Ukrainadagi urushni to'xtata olsa, kelgusi yilda, shubhasiz, orzusi ushalishi aniq. "Agar" deb so'z boshlaganimizning boisi shundaki, Rossiya prezidenti Putin uchun jangovar harakatlarni to'xtatish mag'lubiyat bilan teng ko'rilmogda. Jahon tarixidan misol keltiradigan bo'lsak, imperiya va tinchlik bir-birini mutlaqo rad etadigan tushunchalardir. Imperiyalar urushlarsiz uzoq yashay olmaydi. Masalan, Rossiya Birinchi jahon urushi susayishi bilan halokatga yuz tutgan. Qizil imperiya "sovuq urush" nihoyasi bilan parokanda bo'ldi. Shu ma'noda, agar Ukrainadagi urush to'xtatilsa, Putinning rejaları barbod bo'lib, imperiya qoldiqlari ham titilib ketishi mumkin. Aynan ana shu sabablarga ko'ra, Putin urush to'xtashidan manfaatdor emas. Budapeshtda o'tkazilishi kutilayotgan oliy darajadagi uchrashuv haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu prezident Putin uchun vaqtdan yutib, iloji bo'lsa, Ukrainaga berilayotgan harbiy yordam kanallarini bekitishga urinishdan boshqa narsa emas. E'tibor berilsa, shu maqsadda Trampga yoqadigan xushomad gaplar ham aytilmoqda. Yaqinda Putin "Trampga Nobel tinchlik mukofotini bermaganligi uchun" mukofot qo'mitasini qattiq tanqid qildi. Soddadil Tramp: "Mukofotni berishmaganiga sen sababchi bo'lding", deyish o'rniga bu masalada qo'llab-quvvatlagani uchun Putinga chuqur minnatdorchilik izhor qildi. Biroq bu borada Trampni judayam soddadil desak uncha to'g'ri bo'lmas. U mohir siyosatchi bo'lmasa-da, o'ta pishiq tadbirkor odam. Aytaylik, u o'zi tinchitgan mojarolarni to'xtatish uchun biror tiyin ham sarflagan emas. Hammasini iqtisodiy dastaklar vositasida uddaladi. Tramp bizning tilni bilmasa ham, o'zbeklarning: "Kambag'alni urma-so'kma, ko'ylagini yirt", degan aqlli naqlidan xabardor ko'rinadi. Bu gal ham u ana shu maqolni qo'llamoqda. Biroq sulhning qaror topishiga Rossiya, Xitoy, Hindiston singari yirik davlatlarning baquvvat iqtisodiyoti to'siq bo'lib turibdi. Agar qattiq cheklovlar qo'llansa, ular ham Sem amakining yo'rig'iga yurishga majbur bo'lishadi deb o'ylaymiz. Buning birinchi alomati sifatida Hindistonning rus neftini xarid qilishdan to'xtalganini misol qilib ko'rsatish mumkin. Agar Xitoy ham shunday yo'l tutsa, Putin uchun sulh tuzishdan o'zga chora qolmaydi.

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi



Mallayev Shuxrat Sherqulovichning 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha “Bolalarda yuvenil idiopatik artritis: molekulyar-genetik jihatlarini, prognozlash va davolashni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti(Toshkent pediatriya tibbiyot instituti) huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 30-oktabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Askarov Ixtiyorjon Baxtiyorovichning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(texnika) ixtisosligi bo'yicha “Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/27.02.2020.T.109.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 29-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140147, Samarqand shahri, Lolazor ko'chasi, 70-uy.
Tel/faks: (66) 237-18-47, 237-19-53; e-mail: samgasi_atm@edu.uz

Igamberdiyev Obidjon Rubdulla o'g'lining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida futbolchilarni saralab olishning ilmiy-nazariy asoslari” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022. Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko'chasi, 15-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76;
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: jtsu@uzdjtsu.uz

Azizov Nosirjon Nematillayevichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Yuqori malakali kurashchilar musobaqaoldi tayyorgarligini boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022. Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 28-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko'chasi, 15-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76;
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: jtsu@uzdjtsu.uz

Salomov Nodirjon Istamovichning 14.00.27 – Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha “Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yaralaridan qon ketishi, jigar sirrozi bilan birga kelganda samarali davolash va tashxislash usullarini ishlab chiqish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/27.09.2024.Tib.93.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 28-oktabr kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Qurbonov Mirvohid Kamolovichning 14.00.04 – Otorinolarinologiya hamda 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosliklari bo'yicha “I-tip qandli diabet bilan kasallangan bolalarda o'tkir o'rta otitning klinik-immunologik kechish xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/27.09.2024.Tib.93.03 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 4-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Erkayeva Saodat Abdinayimovnaning 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha “Soyaning introduksiya qilingan nav namunalari asosida yuqori hosildor, kasallik va zararkunandalarga bardoshli tizmalar yaratish” mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 27-oktabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko'ksaroy a/b, SPE va KITI bosh binosi, ilmiy kengash majlislar xonasi.
Tel/faks: (78) 226-85-03, 226-85-03; e-mail: savzavot_info@umail.uz

Toshmatova Munira Shavkatovnaning 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha “G'o'zaning G.barbadense L. turiga mansub oilalarda chigitning tuklanish xili va rangining ayrim qimmatli xo'jalik belgilari orasidagi bog'liqlik nisbatlari” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 27-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko'ksaroy a/b, SPE va KITI bosh binosi, ilmiy kengash majlislar xonasi.
Tel/faks: (78) 226-85-03, 226-85-03; e-mail: savzavot_info@umail.uz

Gimazutdinov Radik Galimovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi hamda 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta'limotlar tarixi ixtisosliklari bo'yicha “Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badminton sportiga o'rgatish uslubiyati” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 27-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
Tel/faks: (97) 689-10-92; veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: jtsu@uzdjtsu.uz

Sultanov Alisher Islamboyevichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Belbog'li kurashchilar texnik-taktik tayyorgarligining ilmiy-metodik jihatlarini” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 27-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
Tel/faks: (97) 689-10-92; veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: jtsu@uzdjtsu.uz

Ismoilova Komola Gaibulla qizining 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Qalqonsimon bez patologiyasi bo'lgan o'smir qizlarda hayz davrining shakllanishini optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent pediatriya tibbiyot instituti) huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 30-oktabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Zufarov Abror Maxamad-Sodikovichning 17.00.02 – Musiqa san'ati ixtisosligi bo'yicha “Navo maqomida parda tizimining rivojlanish evolyutsiyasi” mavzusidagi (san'atshunoslik fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/27.09.2024.San.183.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 5-noyabr kuni soat 10:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mustaqillik shohko'chasi, 31-uy.
Tel/faks: (71) 237-35-75;
veb-sayt: www.uzmmsi.uz; e-xat: Yunus_Rajabiy_devonxona@exat.uz;
e-pochta: devonxona@uzmmsi.uz

Axmedov Otabek Abdashimovichning 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha “Madaniylashtirilgan diploid g'o'za kolleksion namunalarining seleksiyada foydalanish imkoniyatlari” yetishtirish texnologiyasi elementlarini ishlab chiqish” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 30-oktabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Zaripova Dilnoza Yashinovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya hamda 14.00.02 – Morfologiya ixtisosliklari bo'yicha “Klinik-morfologik jihatlarini hisobga olgan holda premenopauzal osteoporozni erta tashxislash, davolash va bashoratlashga zamonaviy yondashuv” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 31-oktabr kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Xakimov Xamro Baxtiyorovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Yuqori malakali og'ir atletikachilar mashg'ulotlarini tashkil qilish uslubiyatini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 31-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko'chasi, 15-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Tursunov Feruz Yuldoshevichning 05.09.06 – Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi ixtisosligi bo'yicha “Sug'orish nasos stansiyalari kaskadlarining ishonchliligi va xavfsizligini oshirish (Qarshi magistral kanali misolida)” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/30.04.2021.T.111.04 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 28-oktabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Ta'kid

Ta'lim sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish tarafdorimiz



Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish borasida muhim islohotlar amalga oshirildi. Bu yo'ldagi o'zgarishlar oddiy raqamlar emas, balki har bir o'quvchining kelajagi, har bir o'qituvchining ishonchi, har bir ota-onaning umididir.

Bu islohotlar bevosita yoshlarning kelajagi va jamiyatning intellektual salohiyatiga xizmat qilmoqda. So'nggi yetti yil ichida ta'lim tizimi bosqichma-bosqich rivojlandi:

– **2018-yildan boshlab yangi o'quv dasturlari joriy qilina boshladi.** Bu degani, o'sha yillari maktablarda o'qitiladigan fanlar va dasturlar zamonaviy talablarga mos ravishda yangilandi, o'quv rejasi takomillashtirildi;

– **2020-yili raqamli ta'lim platformalari va elektron darsliklar takomillashtirildi.** Ya'ni maktablarda an'anaviy qog'oz darsliklardan tashqari, elektron darsliklar, onlayn ta'lim platformalari joriy etildi va ularning soni ko'paytirildi;

– **2023-yili pedagoglar malakasi-**

ni oshirish markazlari faolish boshladi.

O'qituvchilarni doimiy o'qitish va malakasini oshirish uchun maxsus markazlar ochildi, ularda pedagoglar zamonaviy ta'lim metodlari bo'yicha bilim olishmoqda.

– **2025-yilga kelib esa ko'pchilik maktablarda interaktiv ta'lim vositalari muntazam qo'llanilmoqda.** Demak, hozir ko'plab maktablarda interaktiv doskalar, virtual laboratoriyalar,



onlayn resurslardan doimiy ravishda ta'lim jarayonida foydalanilmoqda.

Qisqasi, bu gaplar o'tgan yillardan boshlab ta'lim sohasida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan yirik o'zgarishlar va ularning natijalarini ifodalaydi. Bu natijalar o'z-o'zidan bo'lmadi. Bu davlat siyosatidagi tizim-

li yondashuv, va eng muhimi, xalqimiz, o'qituvchilar va ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi evaziga yuz berdi. Lekin bu bilan to'xtab qolmasligimiz kerak. Ta'lim tizimi doimiy yangilanishni, chuqur o'ylangan islohotlarni talab qiladi. Yangi texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy qilish, pedagogik metodlarni takomillashtirish, har bir bola uchun sifatli ta'lim muhitini yaratish bu yo'ldagi asosiy vazifalarimizdir.

Shuningdek, ta'lim tizimining eng asosiy bo'g'ini – o'qituvchilarga zarur sharoit yaratish, doimiy o'rganishi va innovatsion yondashuvlarni o'zlashtirishiga imkon berish – ta'lim sifatini oshirish kalitidir. Biz ta'lim sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish tarafdorimiz. Zero, bugun ekilayotgan bilim urug'i – ertangi kunimiz mevasidir. Har bir farzand bilimli bo'lsa, har bir dars hayotga tayyorlasa, O'zbekistonning ertasi yanada porloq bo'ladi.

Faxriddin ALIMOV,
Xalq deputatlari Toshkent tumani
kengashi deputati

KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI KAFEDRALARI BO'YICHA QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI:

I. "Dastgohli rangtasvir" kafedrası:

– katta o'qituvchi.

II. "Libos dizayni" kafedrası:

– dotsent;

– katta o'qituvchi.

III. "Dizayn" kafedrası:

– dotsent.

IV. "Muzeyshunoslik" kafedrası:

– professor.

V. "Amaliy grafika va badiiy fotografiya" kafedrası:

– dotsent;

– katta o'qituvchi.

VI. "Miniatyura va kitob grafikasi" kafedrası:

– dotsent.

VII. "San'at tarixi va nazariyasi" kafedrası:

– professor.

VIII. "Badiiy kulolchilik va ta'mirlash" kafedrası:

– katta o'qituvchi.

Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

– institut rektori nomiga ariza;

– xodimlar shaxsiy varaqasi;

– oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom nusxalari;

– mehnat daftarchasi nusxasi;

– ilmiy va o'quv-metodik ishlari ro'yxati;

– ijodiy ishlar ro'yxati, ijodiy ishlar fotoalbomi;

– kataloglar.

Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida institut kengashi kotibi tomonidan qabul qilinadi.



Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko'chasi, 123-uy.
Murojaat uchun telefon raqami: (71) 255-18-33, 255-98-39.



Subhonova Anora Akmal qizining 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(ingliz tili) ixtisosligi bo’yicha “Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili og’zaki nutqini shaxsga yo’naltirilgan yondashuv asosida shakllantirish” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 31-oktabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
Kichik halqa yo’li ko’chasi, 21-“a” uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Xolmuradov Akmal Toirovichning 14.00.12 – Tibbiy reabilitologiya ixtisosligi bo’yicha “Huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlarining charchoq sindromi bilan kompleks reabilitatsiyasi tashkiliy tamoyillari” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/31.10.2024. Tib.102.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 23-oktabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko’chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Xalimov Abbosbek Oybek o’g’lining 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar ixtisosligi bo’yicha “Ekspluatatsiyadagi ko’p kvartirali uylarning energiya samaradorligini baholash va oshirish masalalari” mavzusidagi (texnika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Farg’ona davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024.T.106.06 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 31-oktabr kuni soat 14:30 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 150100, Farg’ona shahri, Farg’ona ko’chasi, 86-uy.
Tel/faks: (73) 241-12-06; e-mail: info@fstu.uz

Xamraxojayeva Surayyo Jurayevnaning 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(nemis tili) ixtisosligi bo’yicha “Iqtisodiyot yo’nalishi talabalari-ga nemis tilini o’qitishda ijodiy yozish ko’nikmalarini takomillashtirish usullari” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 31-oktabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
Kichik halqa yo’li ko’chasi, 21-“a” uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Bozorov Sirojiddin Rustam o’g’lining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo’yicha “O’quv mashg’ulot bosqichidagi futbolchilarni sensitiv davrlarni inobatga olgan holda texnik usullarga o’rgatish uslubi-yati” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29-oktabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko’chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, (97) 689-10-92;
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: jtsu@uzdjtsu.uz

Raxmonov Muzaffar Usmonboyevichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo’yicha “Boshlang’ich sinf o’quvchilarining jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi monitoringi” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022. Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 28-oktabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko’chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, (97) 689-10-92;
veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: jtsu@uzdjtsu.uz

Turayev Shamshiddin Jo’raqulovichning 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo’yicha “Sug’orish kanallari o’zan deformatsiyasi monitoringini geoaxborot texnologiyalari asosida takomillashtirish(Darg’om kanali misolida)” mavzusidagi(texnika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi-ning himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.41/30.04.2021.T.131.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 8-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv 4-mavzesi, 11-uy.
Tel/faks: (99) 434-43-28; ismiti@minwater.uz

Abdullayev Baxrom Xaliljonovichning 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo’yicha “Farg’ona vodiysi yerlarida zovur suvlarini sug’orish suvlari bilan aralashtirishning matematik modeli va algoritmi” mavzusidagi (texnika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.41/30.04.2021.T.131.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 8-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv 4-mavzesi, 11-uy.
Tel/faks: (99) 434-43-28; e-mail: ismiti@minwater.uz

Xojiyev Shohruh Saidjappar o’g’lining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo’yicha “Yosh xokkeychilarning harakat tayyorgarligini shakllantirishda 3D texnologiyasini qo’llash metodikasi” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 6-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko’chasi, 15-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Saypiyev Azizbek Akbarovichning 14.00.22 – Travmatologiya va ortopediya ixtisosligi bo’yicha “Uzun naysimon suyaklarning polifokal sinishlarida osteoreparatsiya jarayoni kechishini klinik-eksperimental asoslash” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/27.09.2024.Tib.93.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 4-noyabr kuni soat 12:30 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G’ijduvon shohko’chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Turopov Hatamjon Xusanboyevichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo’yicha “10-12 yoshli stol tennischilar jismoniy tayyorgarligida yordamchi mashqlar kompleksini qo’llash metodikasi” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 7-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko’chasi, 15-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Sheyxova Xafiza Kamalovnaning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo’yicha “Xorazm viloyatida yashovchi reproduktiv yoshdagi ayollarda bachadondan anomal qon ketishining morfologik xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 24-oktabr kuni soat 12:30 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G’ijduvon shohko’chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Rajabov Shuhrat Jo’raboyevichning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo’yicha “Nafas olish tizimi kasalliklari bo’lgan bolalarda shoshilinch holatlar rivojlanishining immunologik xavfi” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 27-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G’ulomov ko’chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

O’ktamov Dilyorbek Tojiboyevichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg’ulotlari, sog’lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo’yicha “Yillik tayyorgarlik mashg’ulotlarida 5000 metr masofaga yuguruvchilarni musobaqalarga tayyorlash metodikasi” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 7-noyabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko’chasi, 15-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Hamraqulov Yorqin Murtazaqulovichning 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(texnika) ixtisosligi bo’yicha “Innovatsion yondashuv asosida talabalarda muhandis-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mirzo Ulug’bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/27.02.2020.T.109.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 31-oktabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 140147, Samarqand shahri, Lolazor ko’chasi, 70-uy.
Tel/faks: (66) 237-18-47, 237-19-53; e-mail: samdaqu@edu.uz

Butayeva Nargiza Buriboyovnaning 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(texnika) ixtisosligi bo’yicha “Talabalarning texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini tizimli yondashuv asosida takomillashtirish” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo’yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mirzo Ulug’bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/27.02.2020.T.109.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 31-oktabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo’lib o’tadi.

Manzil: 140147, Samarqand shahri, Lolazor ko’chasi, 70-uy.
Tel/faks: (66) 237-18-47, 237-19-53; e-mail: samdaqu@edu.uz



Seminar



Boshlang'ich ta'limda kreativ fikrlashni shakllantirish:

PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Deyarli asr bilan yuzlashgan Bo'ka tumanidagi 8-maktabda fan nomzodlari, fan doktorlari, akademiklar ta'lim olishgan.

Maktabda yaqinda "Boshlang'ich ta'limda kreativ fikrlashni shakllantirish: pedagogik va psixologik yondashuvlar" mavzusiga bag'ishlangan seminar-trening bo'lib o'tdi. Ushbu seminar-trening Toshkent viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi hamkorligida tashkil etilib, umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodist va pedagog-psixologlar ishtirok etishdi. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rag'batlantirish, o'quvchilarning erkin va ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlarni pedagoglar orasida ommalashtirishdan iborat.

Seminarida quyidagi masalalar atroflicha yoritildi:



- boshlang'ich ta'limda kreativ fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilarda ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash;

yalar orqali o'quvchilarda ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash;

- dars jarayonida tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari;

- amaliy mashg'ulotlar orqali interaktiv yondashuvlarni sinab ko'rish.

Boshlang'ich ta'limda STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yondashuvi asosida o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammoni yechish va texnik tafakkurni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Uni amaliyotga tatbiq qilishda loyiha asosidagi ta'lim (Project-Based Learning) katta samara beradi. STEAM EduLab modeli esa STEMga san'at va ijodiy yondashuvlarni qo'shgan holda, o'quvchilarni turli fanlar bo'yicha integratsiyalashgan bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Bu model asosida tashkil etilgan integratsiyalashgan to'garaklar bolalarda ijodkorlik, hamkorlikda

ishlash, eksperiment o'tkazish va natija chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida 4K modeli (kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya, tanqidiy fikrlash) markaziy o'rinda turadi. Boshlang'ich sinflarda ushbu modelni qo'llash orqali bolalarda quyidagi ko'nikmalar shakllanadi:

- kreativ fikrlash – yangicha yondashuvlarni o'ylab topish va o'z fikrini ifoda etish;
- kommunikatsiya – aniq va to'g'ri muloqot qilish;
- kollaboratsiya – guruhda ishlash, liderlik va ijtimoiy mas'uliyat;
- tanqidiy fikrlash – muammoni chuqur tahlil qilish va xulosaga kelish.

Bunday hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlovchi va jamiyatda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar rivojlangan hozirgi davrda o'qituvchilar uchun onlayn psixologik platformalar orqali yordam olish imkoniyati kengaymoqda. Mobil ilovalar, anonim so'rovnomalar, virtual konsultatsiyalar – bularning barchasi o'qituvchining ruhiy salomatligini tiklash va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Xalqaro Nordik universiteti va Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi mutaxassislari yuqoridagi mavzularda o'z tajribalari bilan o'rtoqlashib, o'qituvchilar uchun foydali tavsiyalar berishdi. Seminar interaktiv tarzda o'tib, ishtirokchilarning faol muloqoti, fikr almashinuvi va amaliy topshiriqlar bajarilishi orqali kechdi.

Shodiyona XUSHMURODOVA,
"Ma'rifat" muxbiri



Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-6000. Tiraji-6117.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (71) 212-01-50

ISSN 2010-6436



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Gazetaning saytiga o'tish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

